

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT
ISHLARI VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT MADANIYAT
INSTITUTI**

**QO'LYOZMA HUQUQIDA
UDK_____**

Dusmanov Sherzod Abduvaliyevich

**Ijtimoiy ishda milliy va etnik hududiy o'ziga xosliklarni hisobga
olish orqali inklyuziv ta'limni rivojlantirish**

**MUTAXASSISLIK: 5A760104 - OILA VA BOLALAR BILAN OLIB
BORILADIGAN IJTIMOIIY ISH**

**MAGISTR AKADEMIK DARAJASINI OLIISH UCHUN YOZILGAN
DISSERTASIYA**

Ilmiy rahbar:

Sotsiologiya fanlari doktori, professor

Bekmurodov M_____

Toshkent – 2012

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3-8
I bob. Ijtimoiy ishda milliy va etnik-hududiy xususiyatlarni hisobga olish.	
1.1. Ijtimoiy ishda antropogik va milliy-etnik yondashuv.....	9-27
1.2. Inson rivojida milliy-etnik xususiyatlarni o'rni.....	28-46
II bob. Ijtimoiy ish sohasida inklyuziv ta'limni rivojlanishi.	
2.1. Inklyuziv ta'limni tashkil etishda milliy mentalitet xususiyatlarni hisobga olish.....	47-54
2.2. Inklyuziv ta'limni rivojlantirishda etnik hududiy xususiyatlarni hisobga olish.....	55-64
2.3. Internet tizimida inklyuziv ta'lim.....	65-76
Xulosa.....	77-78
Adabiyotlar ro'yxati.....	79-81
Internet resurslar	82
Ilovalar.....	83-85

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Bugun biz tarixiy bir davrda – xalqimiz ezgu va ulug’ maqsadlar qo’yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, o’z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlatlar fuqarolik jamiyati qurish yo’lida ulkan natijalarni qo’lga kiritayotgan zamonda yashamoqdamiz.

Biz o’z mustaqilligimizni qo’lga kiritib, yangi taraqqiyot yo’liga qadam qo’yganimizdan so’ng xalqimizning xohish-irodasi, asriy orzu-intilishlariga tayangan holda erkin bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy davlat, demokratik jamiyat barpo etishni o’z oldimizga maqsad qilib qo’ydik. Prezidentimiz I. Karimov tomonidan bugun dunyoga o’zbek modeli sifatida tan olingan taraqqiyot modelini ishlab chiqdi. Yurtboshimiz aytganlaridek, “agarki biz mustaqillikka erishganimizdan so’ng bosqichma-bosqich rivojlanish yo’lini emas, balki “shok terapiyasi” deb nom olgan inqilobiy sakrash yo’lini tanlasak, eng qiyin vaziyatlarda ahvolimiz, hech shubhasiz, stixiyali tarzda yuz beradigan shiddatli o’zgarishlar to’fonida odamlarning moddiy turmush sharoiti keskin yomonlashib, ularning hayot tarzi, axloqiy qadriyatlari, milliy-ma’naviy qiyofasi butunlay izdan chiqib ketishi hech gap emas edi”¹.

Bugungi o’zbek mentaliteti bozor munosabatlari hamda hozirgi zamon informatsion intellektual texnologiyalarning ustivorligi davrida o’zgarayotgan zamon va yangilanayotgan makon dunyo xalqlari fe’l-atvori tizimida miya faolligi, sa’y-harakatlari tezkorlik, topqirlik va ayni chog’da har bir ishda rejaviylik, puxta tayyorgarlik, fahm-farosat, muammolarni hamkorlik asosida hal etish xususiyatlarini rivoj toptirishini taqozo etmoqda. Shuningdek, shaxs va jamiyat, shaxs va davlat munosabatlari tizimida alohida subyektlar – insonlar rolining benihoya oshib borishi kuzatilmoqda. “Bizning xalqimiz sabr-bardosh, yaxshilik, osoyishtalik, boshqa xalqlarga nisbatan xayrixohlik ruxida tarbiyalangan” – degan edi prezidentimiz I.A. Karimov 1991 yil 31 avgustda O’zbekiston SSR Oliy

¹ Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – b. 106.

Kengashining oltinchi sessiyasida O'zbekiston Respublikasing mustaqilligini e'lon qila turib so'zlagan nutqida ².

Ana shu munosabat bilan I.Karimov xalqimiz xarakterida pragmatistik, ekzistensialistik hamda ratsionalistik xususiyatlarini shakllantirish va rivojlantirish zarurligini ilgari surdi. Ma'lumki, pragmatizm – harakat, intilish ma'nolarini ifodalab, shu harakat orqali muayyan foyda, manfaatlarga ega bo'lishni, shaxsning maqsadli sa'y-harakatlari, faoliyatlari, unga mehnatiga muvofiq naf, foyda keltirishini ifoda etadi³. G'arb kishisi tabiatan individualist bo'lib, manfaat omili uning barcha harakatlarini faollashtiradi, faol shaxs sa'y-harakatlari uchun asosiy mezon vazifasini o'taydi. Bizda esa, shaxsiy foyda boshqalardan ko'ra o'zini ko'proq o'ylab ish tutish odob doirasidan chetdagi hol sanalib, kishini jamoadan begonalashtiruvchi, uni go'yoki xudbin qilib qo'yuvchi omil vazifasini bajarib kelgan.

Bozor munosabatlari insonni tartibli hayotga undaydi fikirlab ish tutishga tadbirkorlikka davat etadi. Bozor hamma narsaga ongli yondashuvni, oqillik bilan munosabatda bo'lishni talab etadi. Meyorsiz bag'rikeglik, hatomtoylik, sahovat peshalik, serchiqimlilik, hisobsiz sarf-harajat qilishga moyillik singari odatlarimizni ma'lum darajada cheklaydi. Har narsaga aql ko'zi bilan qarash asta-sekin turmushning bosh tamoyiliga aylanib baradi. Bu esa yurtboshimiz ta'kidlagan ekzistensialistik ya'ni hayotga bugungi talablardan kelib chiqib, hushyor va oqilona yondashuvlarni yoshlarimiz fe'l-atvoriga singdirish nechog'li dolzarbligini yanada ravshan ko'rsatadi. Odatiy hayot tarzimizda biz o'zimizni doimiy ekzistensial holatida, ya'ni yashashga mas'ul va yashayotgan shaxs sifatida muntazam his etib turmaymiz. Biz o'zimizni emas ko'proq bashqalarni kuzatishga, kuzatayotganda ham tizimli emas, betartib qayt etib yurishga moyilmiz. Eksistensialistik yondashuv insonni ongli, xushyor, sergak, o'zini tirik, oqil mavjudot sifatida doimiy anglash va his etib turishga undovchi kuchdir. Bunday yondashuv insonda o'zini o'zi doimiy tarzda yangilab borish, tashqi shart-

² Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2012. – b. 25-26.

³ Bekmurodov M. O'zbek mentaliteti. – T. "Yangi asr avlodi", 2004. – b.21.

sharoitlarga moslashuvchanligi, o'zini o'zi muhofaza eta bilish, muntazam ravishda takomillashuvni ehtiyoj sezish xususiyatlarini tarkib topdiradi. Eksintensialistik yondashuv kishini konformizmdan, ya'ni hamma narsaga ko'nib ketaverishdan, ortiqcha qonoatdan befarqlik va loqaytliklarga berilishdan xalos bo'lishga, o'z so'zi, o'z nuqtai nazari e'tiqodida qat'iy va barqaror bo'lishga dav'at etadi.

Aslida, har qanday islohotning eng muhim samarasi, avvalo, xalqning ma'naviy-ruxiy qarashlaridagi yangilanish jarayonlari, uning ongu tafakkurining yuksalishi, mamalakatda yuz berayotgan o'zgarishlar uning hayotiga va taqdiriga ta'sir ko'rsatishini his qilishi va xulosa chiqarishi bilan belgilanadi. Zero, prezidentimiz aytganlaridek "islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning faravon hayoti uchun xizmat qilishi kerak" ⁴.

Binobarin, O'zbekistonning uzoq va yaqin o'tmishi haqida ijtimoiy ishning tayanch ustunlari hisoblangan ayrim oliy o'quv yurtlarining paydo bo'lishi va shakllanishi, shuningdek fidoiylilik namunalarini ko'rsatayotgan inson haqida yozish, ayniqsa, kelajak avlodga qisqa ko'lamda bo'lsa-da, ma'lumot qoldirish va shu chorani rivojlantirish bu o'z oldiga qo'ygan asosiy vazifamiz hisoblanadi.

Shunday ekan, buning uchun har bir inson harakat qilishi kerak. Vatanni sevgan inson oilasini ham sevadi, oilasini sevgan inson Vatanini sevadi. Demak, bu ikkisi bir-biriga chambarchas bog'liq narsalardir. Vatanini gullab yashnashini xohlaganidek, oilasini ham gullab yashnashini xohlaydi. Farzandlari barkamol inson bo'lib yetishishiga ko'mak beradi.

Oilalarda o'sayotgan har bir bolani xoh u nogiron bola bo'ladimi uning ham jamiyatda hamma insonlar qatorida o'qib ta'lim olishga haqlidir. Yuqorida zikr etilgan fikrlar jamiyatimiz oldida turgan eng asosiy va dolzarb vazifalardan biridir. I.Karimov aytganlaridek, davlat bugun o'nib o'sib kelayotgan farzandlarimizning har tomonlama barkamol avlod bo'lib hayotga kirib borishini o'zi uchun eng ulug', kerak bo'lsa, eng muqaddas maqsad, deb biladi.

⁴ Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – b. 106.

Jahon statistika ma'lumotlariga ko'ra dunyo aholisining qariyb 11 foizini nogironlikka chalingan odamlar tashkil qiladi.

Inklyuziv ta'lim individual yondashuvga asoslangan bo'lib, barcha ta'lim oluvchilarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turli ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlarini beradi. Ta'limdagi ushbu yondashuvda o'z jismoniy va aqliy xususiyatlari bilan farqlanadigan bolalar umumiy ta'lim tizimiga jalb qilingan bo'lib, o'z tengdoshlari bilan umumta'lim maktabida alohida ta'lim talablari hisobga olingan holda tahsil oladilar.

Inklyuziv ta'limni umumta'limning tarkibiy qismi sifatida va shuningdek, imkoniyatlari cheklangan bolalarni umumiy ta'limga integratsiya qilish maqsadlaridan biri sifatida o'rganish mumkin. G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika mamlakatlarida inklyuziv ta'lim tizimi kiritilganligiga 25 yildan oshgan. O'zbekistonda esa bugungi kunda inklyuziv ta'lim boshlang'ich bosqichda.

Butun dunyoda imkoniyatlari cheklangan bolalarni o'z tengdoshlari bilan o'qitish keng tarqalayotganini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi, asosiy xalqaro deklaratsiyalarni qabul qilgan davlat sifatida, imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim muhitiga integratsiya qilish bo'yicha ishtirok etmoqda. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi imkoniyati cheklangan insonlarga o'z salohiyatini amalga oshirishda teng huquqlar beradi, ta'lim olish huquqlari esa Konstitutsiya bilan kafolatlangan.

Ishning o'rganilganlik darajasiga ko'ra, ijtimoiy ish muommasi respublikamizda ilmiy-nazariy soha hisoblanadi. Bu borada M.Bekmurodov, F.Nabiyev, A.Yunusov, A. Norbekov , U.Abduazimov, S.Tajiyeva , D.Sobirova, Sh.Qodirova, A.Sanaqulov, H.Xusanova, D.Rahmonov, M.G'aniyeva, A.Umarov, S.To'ycheeva, Masaliyeva.O va boshqalarning ilmiy-tadqiqotlari ishlari mavjud.

Inklyuziv ta'lim sohasida G.Karimovanning mualiflik loyihasi – "O'zbekistonda inklyuziv ta'lim" ning navbatdagi bosqichiga aylandi. "Inklyuziv ta'lim: milliy modelini ishlab chiqish va joriy etish" da u o'zini ilmiy maqolalarini yaratgan va N.Muhamedova, A.Muhamadboyeva, Q.Niyozov, G. Mirziyodova, A.Xudoyberdiyeva va boshqalarning ilmiy maqolalari mavjud.

Xalq ta'limi vazirligi, YUNESCOning mamlakatimizdagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda "Inklyuziv ta'limning ijtimoiy strategiyalari" mavzusida xalqaro anjuman o'tkazildi. Yevropa ittifoqi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi, FIELD STUDIES COUNCIL, Respublika yoshlarning "Bioekosan" o'quv uslubiy majmuasi birgalikda "Tabiat qo'ynida inklyuziv mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha" amaliy qo'llanma chop etishdi.

Ammo, hozirga qadar ijtimoiy ish sohasida ijtimoiy ta'limni rivojlantirishda milliy etnik hamda hududiy muammolarni tizimli tarzda tadqiq etish bo'yicha maxsus ilmiy adabiyotlar juda kamdir.

Shu boisdan ham mazkur tadqiqot ishimizda inklyuziv ta'limning O'zbekistonda rivojlantirish bo'yicha milliy etnik antropologik hamda hududiy omillarning o'рни va rolini maxsus ilmiy tadqiqot obekti sifatida o'rganishga kirishdik.

Magistrlik dissertatsiyasining maqsad va vazifalari. Tadqiqotni maqsadi ijtimoiy ishda milliy va etnik hududiy o'ziga xosliklarni hisobga olish orqali inklyuziv ta'limni rivojlantirishning nazariy hamda amaliy imkoniyatlarini tadqiq etishdir.

- milliy antropologiya va milliy mentalitet tushunchasini ijtimoiy ishda keng targ'ib qilish;
- ijtimoiy ishda etnik hududiy xususiyatlarni hisobga olish;
- O'zbekistonda nogiron bolalar uchun inklyuziv ta'limni rivojlantirish;
- inklyuziv ta'limni rivojlantirishda milliy mentalitetning roli va ahamiyatini ochib berish;
- inklyuziv ta'limda etnik hududiy xususiyatlarning ta'sirini yoritib berish chora tadbirlari.

Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi shundaki,

- ijtimoiy ishda milliy mentalitet va milliy etnik yondashilganligida;
- O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirishda yuzaga kelayotgan muammolarini tahlil qilinganligida;
- ijtimoiy ishda antropologik yondashuv xususiyatlari tadqiq etilganligida;

- internet tizimida inklyuziv ta'limning yoritilish holati olib borilganligida namayon bo'ladi.

Tadqiqot ob'ekti qilib nogiron bolalarni ta'lim olishini rivojlantirish imkoniyatlari tizimli tadqiq qilishga doir ilmiy-amaliy muammolar olindi.

Tadqiqotning predmeti ijtimoiy ishda inklyuziv ta'limni amalga oshirishda milliy etnik omillarning o'rni va rolidan ibaratdir.

Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi kirish, ikki bob, besh paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

I bob. Ijtimoiy ishda milliy va etnik-hududiy xususiyatlarni hisobga olish.

1.1. Ijtimoiy ishda antropogik va milliy-etnik yondashuv.

Mamalakatimiz mustaqillikka erishish ostonasida turgan bir davrda 1991 yil 31 avgustda Prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan o'n ikkinchi chaqiriq Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasidagi so'zlagan nutqida O'zbekiston mustaqil suveren respublika deb e'lon qilindi. O'sha kundayoq o'zbek xalqining oldida turgan maqsadlari belgilandi, "bu xalq bugun bizdan himoya talab qilyapti, tinch-totuv hayot, og'ir mehnatiga yarasha turmush sharoitlari talab qilyapti. Bu – haqqoniy talabdir"⁵.

Sivilizatsiya bu ijtimoiy hayotning muayyan taraqqiyot mahsuli va mazmuni bo'lib, aniq belgilangan ijtimoiy tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Madaniyat esa sof ma'naviy fenomen sifatida insoniyatning sotsiobiologik tur sifatida saqlanib qolishga, tinchligi, barqarorligi, tarixiy tajribasining uzviyligiga xizmat qiluvchi hodisadir. Ayniqsa, bugungi kunda insoniyat boshiga real xavf tug'dirayotgan yadroviy urushlar tahdidi ekologik falokatlar, demografik portlashlar va boshqa umumbashariy muammolar madaniyat hodisasiga dahldor emas. Aksincha, madaniyat mazkur falokatlarning oldini olish ustida qayg'uradi. Shu boisdan madaniyatga sof insoniy tamoyillar orqali saralangan, ramziy-semiotik nuqtai nazarlardan tanlangan va xalqlarning pozitiv, ya'ni o'zaro birlashib turmush kechirishlari tajribasi deb qarash maqsadga muvofiqdir. Shu boisdan madaniyat inson uchun ongli faoliyatlarni amalgam oshirish yo'lidagi pozitiv va foydali bo'lgan barcha hodisalar mazmunini ifoda etadi.

Madaniy antropogiya fani uchun madaniyat tushunchasi muhim ahamiyat kasb etuvchi hodisa hisoblanadi. Madaniyat tushunchasi ko'p qirralidir. Aksariyat mualliflar (Ya.Uayt, K.Klakxon, A.Kreber va boshqalar) madaniyatni odamlarning o'zaro birgalikdagi hayoti mazmuni tarzida tushunadilar va jamiyatni esa ushbu mazmunini qamrab oluvchi tarkibi yaxlitlik sifatida talqin etadilar. Ammo mazkur

⁵ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2012. – b. 401-402.

ta'rif juda keng va mavhum ekanligi bois so'ngi yillarda madaniyat va sivilizatsiya tushunchalari alohida tarzda o'rganila boshlandi.

Shunday qilib madaniyat ko'pchilik aholi guruxlarining birgalikdagi hayotini tashkil etuvchi va boshqaruvchi pozitiv tajribadir. Bu esa madaniy antropogiyaning tadqiqot obyekti ham konkretlashtiradi. Antropologiya fanining tadqiqot obyekti insonning ijtimoiy hamda tabiiy muhitdagi holatini madaniyat omili orqali o'rganishdan iboratdir.

Ijtimoiy psixologiya fani tomonidan erishilgan ba'zi muhim xulosalar ijtimoiy antropogiya fani uchun ham qimmatlidir. Xususan, ijtimoiy psixologiya fani vositasida chuqur o'rganilgan individning real ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqasi, uning jamiyatdagi normativ, deviant yoxud muayyan sotsial ro'llar doirasida harakatlarni o'rganuvchi nazariyalar ijtimoiy antropogiya fani doirasida ham tadqiq etiladi. Madaniyat tushunchasini, madaniyatni antropogiya fani nazaridan tadqiq etish aslida kichik yoki ibtidoiy xalqlarning madaniyatini o'rganishdan bo'shlanadi. XX asr boshlarida E.B. Teylor bu haqida shunday degan edi: "Madaniyat bu – insonning jamiyat a'zosi sifatida an'analar, rasm-rusumlar, bilimlar, e'tiqodlar, axloq, san'at, qonunlarni o'zlashtirishdir"⁶.

Madaniyat hodisasini to'laroq anglash maqsadida mazkur tushunchani falsafa fani nuqtai nazaridan tahlil etish ham maqsadga muvofiqdir. Madaniyatga faoliyat sifatida yondashish quyidagi qoidalarda o'z ifodasini topadi: "Madaniyat inson tomonidan o'z-o'zini va borliqni qayta qurishdan iborat faoliyat demakdir". "Madaniyat insonning mohiyatini ifodalovchi faoliyat".

Texnologik yondashish quyidagi qoidalarda ifoda etiladi: "Madaniyat kishilik tajribalarini saqlovchi, rivojlantiruvchi va avlodlarga yetkazuvchi vositadir", "Madaniyat faoliyatni amalga oshirish uslubidir".

Madaniyat tushunchasini gumanistik va mazmun jihatdan ta'riflovchi qoidalar quyidagilardir: "Madaniyat insonning ijodiy kuchlari va qobiliyatlari

⁶ Minyushev F.I. Sotsialnaya antropologiya. - M., 1997. - S. 4-7.

rivojlanishi qonuniyatlari ifodasidir''. “Madaniyat tabiat va jamiyat bilan o'ziga xos uyg'unlashuvidir''.

Madaniyat tushunchasi turli mintaqalarda turlicha negizlarda tarkib topganligini ham ta'kidlash joiz. G'arb mamlakatlari uchun madaniyat tushunchasi “Kultura” atamasidan kelib chiqqan va ma'no xususiyatiga ko'ra “yer haydash”, “yerni ishlash” ma'nosini ifoda etadi. Bu esa madaniyat (“Kultura”) tushunchasi doirasiga yerni ishlash mohiyatidan kelib chiquvchi “shakllantirish”, “rivojlantirish”, “tarbiyalash”, ma'nolarini ham keltirishni taqozo etadi. Shu yo'nalishda G'arb xalqlari mutafakkirlari “madaniyat-kultura” tushunchasi mazmunidan kelib chiqqan holda unga ko'proq inson ongi intilishlari mahsulining ko'rinishlari sifatida tavsif berib kelganlar. Xuddi shu negizda madaniyatning “ommaviy madaniyat”, “ishlab chiqarish madaniyati”, normativlar (xulq-atvor) madaniyati “siyosiy madaniyat”, “huquqiy madaniyat”, “mehnat madaniyati” va hokazo ko'rinishlari maxsus o'rganilib kelinadi.

G'arb talqinidan farq qilib, Sharq xalqlarida, xususan, islom diniga e'tiqod qiluvchi mamalakatlarda madaniyat so'zi “Madina” atamasidan hosil bo'lgan bo'lib, “shaharlik”, “shaharga xos” ma'nolarini anglatadi. Madaniyat atamasining mazkur shakli yaratuvchilik, bunyodkorlik, ijodkorlikka da'vatdan ko'ra insonni muayyan tartibotlar, turmush tarzini qabul qilishga undashni ifoda etadi. Tabiiyki, atamalar o'rtasidagi mazmuniy farqlarni xalqlarning taraqqiyot darajalari ta'sir qilmay qolmagan. Yevropa “kultura” – madaniyat uzoq yillar mobaynida, “sivilizatsiya” atamasi bilan ham uyg'unlikda tushunib kelinmoqda. Holbuki, sivilizatsiya tushunchasi madaniyat – kultura atamasi tarkibidagi ajdodlar tarixi, vorisiylik, turmush tarzi, xulq-atvorlar tizimi, badiiy-estetik mayllar, an'analar, mentalitetlar singari omillarni o'ziga to'liq ifoda etmaydi.

Madaniyat tushunchasi, odatda, moddiy va ma'naviy turlarga bo'lib o'rganiladi. Moddiy madaniyat insonning aqli, shuuri, mehnati orqali yaratilgan barcha narsalardan iboratdir. Ma'naviy madaniyat esa moddiy boyliklarni yuzaga keltirishga asos bo'luvchi omillar, ya'ni so'zlar, g'oyalar, odat va an'analar,

e'tiqodlar, yondashuvlarni ifoda etadi. Ko'rinib turibdiki, ma'naviy va moddiy madaniyatlar o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud.

Madaniyat tushunchasini antropogiya fani nuqtai nazaridan talqin qilinishiga ko'ra, madaniy antropogiyaning predmeti, jismoniy antropogiyadan farqli o'laroq, insoniy jamiyatlar madaniy holatlarining tahlilidan iboratdir ⁷. Antropoglarning fikriga ko'ra, inson hatti-harakatining mohiyati genetik omillarga ko'ra emas, balki madaniy shakllanishga ko'ra belgilanadi.

Madaniy antropogiyaning psixologik va biologik yo'nalishlarni tahlili ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, taniqli psixolog olimlar Z. Freyd, U Orborn, Erik Fromm va boshqalar inson hatti-harakatlari negizida ijtimoiy muhitdan tasir darajasi va ayniqsa individ insoniy instinktlarining qondirilishi bilan jamiyat tartibotlari o'rtasidagi konfliktlar majmui muhim o'rin tutishini ta'kidlaydilar.

Taniqli sotsiolog T. Parsons esa Fred konsepsiyasini rivojlantirib, shaxsning hatti-harakatlari miqyosi uning madaniy ijtimoiylashuvi darajasida bevosita bo'g'liqligini asoslaydi.

Madaniy antropogiya fani XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jadal taraqqiy topgan bixeviorizm (inglizcha Behaviour-hatti-harakatlar, xulq-atvor ko'rinishlari) nazaryasini ham e'tibordan chetda qoldirmaydi. Bixeviorizm tarafdorlari pozitivizm tamoyillariga tayanib, fan faqat inson faoliyatining bevosita kuzatish mumkin bo'lgan jihatlarinigina tadqiq etish zarur, deb hisoblaydi. Bixeviorizm insonning madaniy kamolotida "stimul – reaksiya" tamoyili muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi ⁸. "Stimul – reaksiya" tamoyiliga ko'ra inson tashqi ta'sirlar oqibatida o'ziga xos va mos harakatlarni bajaradi. Bixevioristlar tashqi ta'sirlar mazmunini inson sha'ni, g'ururi, qiziqishlari, maqsadlariga muvofiqlashtirish odamlarning madaniy taraqqiyoti, ijtimoiy rivoji, xulq-atvorini yaxshilashga xizmat qiladi, deb hisoblaydilar.

Madaniy antropogiyaning muhim yo'nalishi turli mintaqalar, regionlar, xalqlar va odamlar o'rtasidagi masofaviy farqlar omilini o'rganish hisoblanadi.

⁷ Sotsiologicheskiy slovar. – M.: Ekonomika, 2000. – b. 147.

⁸ Bekmurodov M. O'zbek mentaliteti. – T., 2011. – b. 9-10.

Antropog E.T.Xill XX asrning 60-yillarida fanga “proksimika” (lotincha procsimus – yaqindagi shaxslar, holatlar, muhit) atamasi kiritadi⁹. Mazkur yondashuv orqali turli xalqlarning ijtimoiy bag’rikengligi, o’z muhitiga boshqalarni singdira olishi darajasi, alohida kishilar o’rtasidagi muloqot masofasi masalalarini maxsus o’rganish imkoniyatlari yuzaga keladi. Ma’lumki, har bir davlat, mintaq, viloyat, tuman va hatto har bir qishloq, mahalla, ko’cha, alohida shaxslar o’rtasida anglanmagan masofa mavjud bo’lib, bu chegaralarning buzilishi oqibatida turli xil nizolar, konfliktlar, falokatlar yuzaga kelgan. Ayni chog’da ta’kidlash joizki, turli xalqlardagi masofa chegaralari ularning tarixan nechog’li tig’iz yashash kelganligi bilan ham izohlanadi. Masalan, Xitoy, Yaponiya, Gonkong, Singapur singari mamlakatlardagi odamlar o’rtasidagi muloqot masofasi darajasi bilan Mo’g’iliston, Buryatiya, Saxa-Yakutiya singari o’lkalardagi odamlararo madaniy masofa o’rtasidagi farqlar kattadir. Shunday qilib, odamlar o’rtasidagi shaxsiy masofa chegaralari aholining an’anaviy joylashuvi va zichlik darajasiga proporsional bog’liqdir.

Madaniyat hodisasini talqin etishda diffuzionizm yo’nalishining o’rnini o’rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Diffuzionizm atropologiya, arxeologiya hamda kultralogiya fanlarini tushunishda o’ziga xos o’rin tutib, ijtimoiy taraqqiyotning negizida madaniyatlarning o’zaro uyg’unlashuvi va tarqalishi mujassam ekanligini ifoda etadi. Diffuzionizm muayyan xalqlardagi madaniy taraqqiyotning evolutsion tarzda, ichki qonuniyatlar negizida rivojlanishiga qarama-qarshi o’laroq, tashqi ta’sirlar ustuvorligi g’oyasini asoslab beradi hamda turli madaniyatlardagi ilg’or yutuqlarni dadil singdirish va o’zlashtirish orqali taraqqiyotga erishish zarurligini ilgari suradi. Diffuzionizm nazaryasining yuzaga kelishida G. Tard tomonidan asoslab berilgan ijtimoiy taqlid konsepsiyasi muhim o’rin tutgan.

Madaniyat antropogiya fanining mohiyatini anglashda sotsiobiologik yo’nalish ham muhim o’rin tutadi. Mazkur yo’nalish XX asrning ikkinchi yarmida

⁹ Minyushev F.I. Sotsialnaya antropologiya. - M., 1997. - S. 117.

shakllangan bo'lib, ijtimoiy hayot voqealarini evolutsion biologiya usullari orqali asoslab berishga intiladi. Mazkur konsepsiya individning xulq-atvori, hatti-harakatlari mohiyatini har bir shaxsga xos bo'lgan genetik dastur mazmuni ifoda etadi, deb tushuntiradi.

Atropologiyadagi biologik yo'nalish tadqiqotchilari dastavval hayvonlar hamda ularning jamoalari tabiatini o'rganib, odamlar va hayvonlarning ba'zi hatti-harakatlardagi o'xshashlikni asoslashga erishdilar. Bu esa ular tomonidan odamlar va hayvonlar fe'l atvorida to'g'ridan-to'g'ri o'xshashlik bor va ulardagi o'zaro harakatlanish mexanizmlari o'rtasida aynan analogiya mavjuddir, degan g'oya ilgari surilishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Sotsiobiologik yo'nalish asoschisi Eduard Uilson 1975 yilda nashrdan chiqqan "Sotsiobiologiya. Yangi sintez" kitobida biologik usullarni qo'llash odamlarning fe'l-atvori, hatti-harakatlarini maqsadli va muntazam kuzatish orqali ularning kelajakda qay tartibda ish qilishlari, nimalarga qodirligi, intilishlari qobiliyatlari natijalarini aniq bashorat qilish imkonini berishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, odamlar o'zaro genetik guruxlanishga moyilliklariga ko'ra muayyan faoliyatlarini bajarishga kirishish asnosida bir-birlari bilan birlashadilar va hamkorlikdagi hatti-harakatlar qilishga moyilliklarini namoyish etadilar ¹⁰.

Tabiiyki, turli xalqlar madaniyatlarida xulq-atvorlarning etnik stereotiplari turlicha bo'lib, har bir xalq fe'l-atvori uning tarixiy madaniyat kechmishi, turmush tarzi, ob-havo xususiyatlari va hokazolar bilan ham izohlanadi. Masalan, fransuz xalqi vakillarining turli hayotiy vaziyatlardagi fe'l-atvori etnopsixologik stereotiplari doirasida o'ziga xos namayon bo'ladi.

Xususan, fransuzlar o'zaro muloqat chog'ida qizg'in suhbatga kirishadilar, suhbatdoshning so'zini bo'lib gapirishga, emotsional bahslashishga moyil bo'ladilar. Ammo tavakkal qilib ish tutishni yoqtirmaydilar. Fransuzlardan farqli o'laroq, angliyaliklar bamaylixotir muloqotga kirishishga, suhbatdoshining fikrini bo'lmasdan tinglashga moyildirlar. Angliya ishbilarmonlari, olimlari, san'at namoyondalari muayyan qavmlar vakillaridan iborat bo'lib, yaqin a'loqada uzoq

¹⁰ Wilson E.O. Sotsiobiology, The Nev Synthesis. Cambridge, 1975.-C. 28-34.

yillar ish yurutuvchi odamlarning o'zaro tabaqalanishi negizida amal qiladilar. Angliya mumtoz ilm-fani, beznisga xos xususiyatlar konservatizm hisoblanadi, bu yerda ko'p asrlik tarixga ega an'analar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Inglizlar yaqin va o'rta muddatdagi prognozlariga tayanib ish tutadilar. Ularda so'z va ish birligi tamoyiliga rioya qilish muhim qadriyat hisoblanadi¹¹. O'zbeklarda esa jamoaviy tabiat hamda yosh, jins, martaba farqlarni hisobga olib yondashish ustuvor mavqe kasb etadi. O'zlarining fikrini eshitish ham tabiiy tarzda suhbatdoshning ijtimoiy mavqei, yoshi, jinsini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Madaniy antropogiya fani millatlararo munosabatlar mohiyatini tadqiq etish jarayonida ijtimoiy-tarkibiy va madaniy omillar ro'liga alohida yondashadi. Xususan, etnik muloqatlarga bevosita ta'sir etuvchi ijtimoiy tarkibiy omillar jumlasiga tadqiqotchilar Y.Arutyunov, A.Drobijeva, A. Susokolovlar quyidagilarni kiritdilar:

- 1) ijtimoiy va etnik tabaqalashuvlarning o'zaro aloqadorligi;
- 2) jamiyatda yuz beruvchi ijtimoiy tarkibiy o'zgarishlar ta'siri;
- 3) etnik omillarning ijtimoiy mobillik jarayonlarga ta'siri ¹².

Etnoslararo munosabatlarni uzoq yillar davomida o'rgangan amerikalik olim G. Ollport shunday xulosaga keladi: "millatlar o'rtasidagi iddaolar, o'zaro da'volar hamda nizo, konfliktlar o'zaro aloqaga kirishuvchi guruxlarning ma'naviy, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy mavqelari tenglashgan hollardagina o'z kuchini kamaytirishi mumkin"¹³.

Madaniyat hodisasini o'rganishda psixologik antropogiya so'ngi yillarda qator yo'nalihlarda tatqiqotlarni amalgam oshiirib kelmoqda. Ularni quydagicha tafsiflash maqsadga muvofiqdir:

Millatlarning etnik o'ziga xosliklarini pisixofizalogik jihatlardan tadqiq etishda qiyosiy va krossmadaniy usullarni qo'llovchi yo'nalish. Mazkur yo'nalish

¹¹ Sheynov V.P. Psixologiya i delovogo kontakta.-Minsk:Amalfeya,1997. - S.260-270.

¹² Allport G.W.The Nature of Prejudce, Mass,Addison.Wesley,Cambridge,1954.(ch.16)

¹³ Allport G.W.The Nature of Prejudce, Mass,Addison.Wesley,Cambridge,1954.(ch.16)

doirasida etnoslarning hatti-harakatlari mazmunini anglashda xotira, hissiyotlar, nutq o'ziga xosliklarini o'rganishga urg'u beriladi;

Kulturalogik tadqiqotlar, ya'ni har bir xalq madaniyatiga xos bo'lgan milliy qadriyat mo'ljallari, etnoslarning ramzlar asosidagi ma'naviy dunyosi mazmun-mohiyatini ochishga yo'naltirilgan etnografiya, folklor, san'atshunoslik fanlari bilan hamkorlikda amalga oshiriluvchi ilmiy izlanishlar;

Mamlakatlarning etnik ongi va o'z-o'zini anglashi bilan bog'liq jarayonlarni o'rganuvchi yo'nalishlar;

Jamiyatga endigina kirib kelayotgan yosh avlod vakillarining ijtimoiylashuvi bilan bog'liq etnik hususiyatlarni tadqiq etuvchi yo'nalish.

Antropologiya fani madaniyat va din muammosiga ham alohida ilmiy yo'nalish sifatida yondashadi. Dinning antropologik tahlili doirasiga turli konfessiyalarning inson hayotidagi ijtimoiy, psixologik hamda genesiologik o'rni va ro'lini tadqiq etish kiradi.

Madaniyat va din hodisalarining o'zaro uyg'unlikdagi tahlili mazkur jarayonning tarkibiy jihatlarini tavsiflashni taqozo etadi. Ular quyidagilardir:

1) diniy ong madaniyat; 2) madaniyat va diniy faoliyat; 3) madaniyat va diniy munosabatlar; 4) madaniyat va diniy oqimlar, konfessional tashkilotlar ¹⁴.

Ma'lumki, diniy ong ijtimoiy ongning tarkibiy qismi sifatida diniy mafkura va diniy psixologiya tarzida amal qiladi. Diniy mafkura diniy e'tiqodlar, tasavvurlar hamda turli xil aqidalar va doirasida amalga oshiruvchi ko'nikmalar majmuidir. Diniy psixologiya – turli xil diniy tasavvurlar, diniy bashoratlar, g'oyalar, hissiyotlar, kayfiyatlar, qarashlar, ruxiy-emotsional mayillarning o'ziga xos sintezidir. Diniy faoliyat muayyan tartiblar, qoidalar, xudoga sig'inish meyorlari jarayondir. Dinga bevosita sig'inish meyorlari asnosida shaxsning e'tiqodi hamda ilohiy kuchlarga itoati amalga oshiriladi. Insonlarning madaniyatga bog'liqligi darajasidan farqli o'laroq, diniy faoliyatda shaxsning mazkur jarayonga singishi, berilishi, bog'liqligi bir qadar qat'iyroq, mas'uliyatliroq, majburiylik

¹⁴ Bekmurodov M. O'zbek mentaliteti. – T., 2011. – b. 13.

ko'lamini teranroq kechadi. Bunga asosiy sabab, shaxsning o'z faoliyatiga hisob berish mas'uliyati kuchliroq anglanadi, sabab va oqibat kategoriyasining amal qilishga kuchli psixologik omil bo'lgan qo'rquv hissi ustivorroq ahamiyat kasb etib turadi.

Madaniyatning shakllanishi va rivojlanishi vorisiylik an'alariga bog'liq bo'lib, o'zidan oldingi avlodlar yaratgan qadriyatlarni o'zlashtirishdan boshlanadi va yangi qadriyatlar yaratish yo'lida tayanch vazifasini o'taydi. Ana shu ikki jarayon eskilik bilan yangilik o'rtasidagi obyektiv zaruriy bog'lanish vorislik deb ataladi. Lekin bunda taraqqiyotga xizmat qiladigan progressiv vorislikni unga to'siq bo'ladigan reaksiya vorislikdan farqlash lozim bo'ladi. Madaniyatga ijobiy (pozitiv) va salbiy (negativ) ta'sir etuvchi vorislik ham mavjud.

Madaniyatda an'alar omilining roli beqiyos. Xalq ma'naviy merosi, an'ana va urf-odatlar tufayli kishilarning tarixiy, madaniy tajribasi to'planib, avloddan-avlodga o'tib boradi ¹⁵. Madaniy an'alar deganda, faqat marosim va urf-odatlarnigina tushunmaslik kerak. Madaniy an'alar ayni vaqtda avloddan-avlodga o'tib boradigan, tarixan qaror topgan va ijtimoiy ongning tarkibiy qismiga aylangan g'oyalar va bilimlar, qadriyatlar, qarashlar va tasavvurlar, xulq va did normalari va hokozolar kabi omillarni ham o'z ichiga oladi.

Madaniyat bevosita qadriyatlar bilan bog'liq bo'lib, uning turlari quyidagilar:

1. Inson yashab moddiy muhit bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar.
2. An'alar, urf-odatlar va marosimlarda namoyon bo'ladigan axloqiy qadriyatlar.
3. Insonning aql-idroki va amaliy faoliyati zaminida shakllangan mehnat malakalari va ko'nikmalari, bilim va tajribalari qobiliyat va iste'dodlarida namoyon bo'ladigan qadriyatlar.

¹⁵ Falsafa.-T.:Sharq, 1999. -301-337-betlar.

4. Odamlar o'rtasidagi jamoaviylik, hamkorlik, xayrihohlik, hamjihatlikka asoslangan munosabatlarda namoyon bo'ladigan qadriyatlar.

5. Kishilarning yoshi, kasbi, jinsi va irqi xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar.

Yuqorida bayon etilgan qadriyatlar o'z navbatida:

- 1) umuminsoniy qadriyatlar;
- 2) mintaqaviy qadriyatlar;
- 3) milliy qadriyatlar;
- 4) diniy qadriyatlar turlariga bo'linadi.

Madaniyat sotsiologiyasida ijtimoiy institutlar muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy institutlar deganda kishilarning ijtimoiy faoliyatlari tashkillashtiriladigan va amalga oshiriladigan muassasalar va ularda ijtimoiy fe'l-atvor, harakatlarning muvofiqlashtiriluvchi tushuniladi. Ijtimoiy institutlarning ko'rinishlari:

- 1) Muvofiqlashtiruvchi (relyatsion) institutlar (jins, yosh, kasb turi, qobiliyatlarga oid mezonlarni aniqlab beruvchi ijtimoiy institutlar).
- 2) Boshqaruv (idora etish) institutlari.
- 3) Birlashtiruvchi (integrativ, uyg'unlashtiruvchi) institutlar.
- 4) An'analar bilan bog'liq ijtimoiy xulqni muvofiqlashtiruvchi institutlar (odatlar, marosimlar, qarindosh-urug'chilik munosabatlaridan iborat faoliyatlarini tashkillashtiruvchi).

5) Madaniy ijtimoiy institutlar (din, san'at, adabiyotga doir faoliyatlarni muvofiqlashtiruvchi)¹⁶.

Madaniyat sotsiologiyasida odamlarning intellektual, axloqiy, estetik fazilatlari, amaliy sa'y-harakatlariga intilishi, qiziqish hamda ehtiyojlari muhim ahamiyatga ega.

Antropologiya fani etnomadaniyat omilga ko'p jihatlardan bog'liqdir, Etnomadaniyatning tarkib topishida odamlarning jamoaviy turmush kechirishini taqozo etuvchi muayyan umumiy qiziqishlar, intilishlar, ehtiyojlar katta ro'l o'ynaydi. Etnomadaniyat izlari aholi turmush tarzining barcha jabhalarida, ya'ni

¹⁶ Umumiy sotsiologiya.-T.: ToshDU, 2008.-78-bet.

kiyinishi, farzand tarbiyasi, oila tartibotlari, uy-joy qurilishlari, folklor va boshqalarda namoyon bo'ladi. Etnomadaniyatning tarkib topishida geografik muhit, til omili, diniy psixik, etnonimik omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, geografik omil odamlarning kasb-kori, kiyinishi, san'ati, an'analarning o'ziga xos shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatsada, diniy omil kishilarning dunyoqarashi, xulq-atvori, siyosiy qarashlari mazmunida o'z aksini namoyon etadi.

Antropologiya fani shaxsning madaniy ijtimoiylashuvi jarayonlariga ham urg'u beradi. Bu borada etnosning ijtimoiy xarakteri, mentaliteti muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsning ijtimoiy-madaniy xarakteri borasida uzoq yillar izlanishlar olib borgan fransuz antropogi B.Katl hozirgi zamon kishisi ijtimoiy xarakteri, mentalitetini quyidagi to'rt guruxga ajratadi.

1. Utilitar mentalitet. Mazkur guruxga kiruvchilar madaniyatning o'ziga xos standart iste'molchilari bo'lib, o'zlarining individual manfaatlarini hamisha ustun qo'yadilar, amaldagi rasm-rusumlar, an'analarga sodiq bo'ladilar, mavjud ijtimoiy tartibotlarga passiv hurmat namoyish etadilar.

2. Shahsiy xafsizlik ustida qayg'uruvchilar. Mazkur guruxga kiruvchilar asosiy e'tiborni o'z shahsiyatlariga qaratadilar, shahsiy hayotda muayyan muvozanatga intilib yashaydilar, o'zaro munosabatlarni nizolarsiz, konfliktlarsiz olib borishga harakat qiladilar. Ular turli xil favqulodda axborotlar yangiliklarga hissiyot bilan yondashishlari sababli hayotda jo'shqin o'zgarishlarni qabul qilishni yoqtirmaydilar.

3. O'zgarishlarga moyil mentalitet. Mazkur guruxga kiruvchilar hayotdan zavq olishni yoqtiradilar. Faoliyatlar maydonini kengaytirib borishga moyil bo'ladilar, sayohatlar qilishga yangiliklar olamiga sho'ng'ib yashashga intiladilar.

4. Kelajakka ishonch bilan qarovchi optimistlar. Mazkur guruxga kiruvchilar, odatda, bir nuqtada turg'un turmaydiganlar, jo'shqin izlanishdan tinmaydiganlar, bir qadar tavakkal qilishga moyil tabaqa hisoblanib, ijodiy va ishlab chiqarish mahsulotlari yaratish va iste'mol qilish tushunchalari bilan yashaydilar. Ularga xos bo'lgan xususiyatlardan biri avval muayyan maqsad,

g'oyani ilgari surib, ortidan g'ayrat bilan borishdan charchamaslik odati hisoblanadi.

Yuqoridagilardan ma'lumki, tabiat va jamiyatdagi barcha o'zgarishlar birinchi navbatda inson fe'l-atvori, ruxiyati, mintalitetida o'z ta'sirini qoldiradi. Mintalitet o'zgarishlari esa shaxs ma'naviyati, davlat tizimi, tuzilmalari va hatto jamiyat qiyofasini ham o'zgartirib yuborishga qodir ekanligi ayon bo'lmoqda. Antropologik tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, dunyo hozirgi kunda umumiy axloq muayyan mazmundagi qiyofa, global mohiyatga ega tamoyillar uchun kurash bazasiga kirdi. Rivojlangan mamlakatlar nafaqat sanoat mahsulotlari, informatsion va mafkuraviy ta'sir ko'rsatish omillari orqali keng ko'lamdagi geosiyosat yurtishmoqda, balki o'z xalqi tabiati fe'l-atvori, mentalitet bilan bog'liq o'ziga xosliklarni muntazam ravishda dunyo xalqlari turmush tarziga, hayotning barcha jabhalariga izchil singdirishga intilmoqda. Dunyo xalqlari uchun etiket, umumiy fe'l-atvor, umumiy mentalitetni maxsus va izchil ravishda tarkib topdirishga urunilmoqda. Siyosiy, iqtisodiy va informatsion globallashuv mentalitetlar, ruxiy o'ziga xosliklar, fe'l-atvorning standartlashuviga ham tutrki bermoqda.

Garchi dunyo xalqlari mentalitetlarining standartlashuvi muayyan ijobiy jihatlarni ifoda etsa-da, o'z navbatida bir qator salbiy oqibatlariga ham olib keladi. Xususan, bu narsa xalqning milliy o'zligidan chekinishga, madaniyatning vorisiylik an'analariga, milliy xarakter bir butunligiga putur etkazadi.

Bu narsani madaniy antropogiya fani nuqtai nazaridan o'zbek xalqi misolida ochib berish mumkin. XVI asr boshlaridan e'tiboran davom etgan siyosiy ijtimoiy tanazzul va bir yarim asrlik mustamlaka davrlari mobaynida o'zbek xalqi o'zligini asrash, milliy birligini, ma'naviy hamda axloqiy yaxlitligini saqlab qolish borasida mislsiz matonat ko'rsata bildi. Milliy birlikni muhofaza etish jarayonlari zaiflashgan davlat homiyligida emas, balki asosan aholi turli tabaqalariga mansub oddiy insonlar, ziyolilar, hunarmandlar, dehqonlar, umuman olganda jamiyat kuchi vositasida amalga oshirib kelindi va quyidagilarda o'z ifodasini topdi:

1. O'zbek xalqi tanazzul va mustamlaka davrlaridan o'zining etnik yaxlitligini saqlagan holda chiqa bildi;

2. Milliy ma'naviyatning yorqin ifodasi bo'lgan urf-odatlar an'analar, rasm-rusumlar, marosim va marakalar tizimi saqlab qolindi;

3. O'tmish madaniyatimizning o'lmas obidolari, buyuk mutafakkirlarimiz qalamiga mansub bebaho asarlarning katta qismi, vaxshiylarcha talon-torojlarga qaramay, turli tadbirlarni qo'llash orqali asrab-avaylandi va avlodlarga etkazildi;

4. Uzoq yillar davomida maxsus o'tkazilgan ta'sir va taziqlarga qaramay til birligi va tozaligini saqlashga erishildi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, turli xil millat ma'naviyatiga yod bo'lgan axloqiy kodekslar turmush tarzini o'zgacha uslublarini singdirish borasidagi uzluksiz tazyiqlariga qaramay o'zbek xalqi o'zining bag'rikengligi, sahovatpeshaligi, hamdo'stligi, sabr-bardoshligini singari chin insoniy fazilatlarni yo'qotmadi.

Tabiiyki, yurtimizning asl farzandlari tomonidan xalqimizning milliy o'ziga xosligini saqlab qolish, uning ma'naviy poydevorlariga jiddiy putur yetkazmaslik uchun olib borilgan goh oshkora, goh xufiyona, kurashda quyidagi omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi:

Xalqimiz tarixiy-madaniy ildizlarning teranligi va sertomirligi, boy ma'naviy merosning mavjudligi;

Xalqimizning asosan o'troq hayot kechirib kelganligi, o'troq hayot esa turg'un mazmundagi urf-odatlarini taqozo etishi, aholining ijtimoiy-ma'naviy mo'ljallarida shahar ruxi, ma'naviyatning an'aviy ustivor mavqe kasb etganligi;

Xalqimizning o'z milliy madaniyati, tili, san'ati adabiyotiga muxabbati, urf-odatlar, rasm-rusumlar, an'ana va morasimlarga sodiqligi, xalq odatlariga millatning ma'naviy qiyofasi sifatida ezozlab yondasha bilganligi;

Islom dini bilan xalq an'anaviy madaniyatining uyg'unlashuvi, ta'qibdagi din bilan mazlum bo'lgan xalqning ozodlik uchun kurashida e'tiqodiy birlik holati tarkib topganligi va mustahkam amal qilib kelganligi;

O'zbek xalqining chidamliligi, cheksiz-chegarasiz sabr-bardoshi, bag'rikengligi, g'animlarni beixtiyor qurolsizlantirishga qodir sofdilligi, samimiyati, mehribonligi, yordam va hamkorlikka hamisha shay qalbi va hokazo

omillar xalqimizning ma'naviy, etnik hamda ijtimoiy-siyosiy voqelik sifatida saqlana bilganligi va yashovchanligiga imkon beradi.

Ayni vaqtda ta'kidlash joizki, shu davr mobaynida xalqimiz yo'qotgan qadriyatlar saqlab qolishga erishilgan qadriyatlardan bir necha hissa ko'proqdir. Ayniqsa o'tgan bir yarim asrlik mustamlaka davri va undan oldingi uch yuz yillik turg'unlik va tarqoqlik davri o'zbek xalqi mentalitetida jiddiy asoratlar qoldirdi.

Xalqimizga xos bo'lgan bahamjihatlik, hamkorlik, jangovorlik, axdga vafodorlik, sadoqat, har ishda birinchi bo'lishga kuchli rag'bat, so'z va amal birligi singari fazilatlarimizga jiddiy putur yetkazildi. Mamlakatimiz tarixida so'nggi to'rt yuz yil mobaynida xalqini milliy birlashishga da'vat etish borasida sa'y-harakatlarning izchil olib borilmaganligi, faqat etnik, sulolaviy va hududiy birlashish bilan qanoat qilish og'ir oqibatlarni yuzaga keltirdi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi o'tmishda meros bo'lib o'tgan barcha holatlarga yangicha ko'z bilan qarash, yalpi tiklanish, umummilliy ma'naviy islohotlarni boshlash imkoniyatini beradi.

Istiqlol hammamizga mamlakatni yalpi sog'lomlashtirish, milliy bir butunlikni ta'minlash, ma'naviy yaxlitlikni yuzaga keltirish masalasini kun tartibiga qaydi. Bugingi kun mantig'i xalqimiz fe'l-atvori, mentaliteti o'zgarishlariga jiddiy e'tibor qaratishga undaydi.

Prezident Islom Karimov "Tafakkur" jurnali va "Fidokor" gazetasiga bergan interviyularida, shuningdek "Komolot" yoshlar ijtimoiy harakati tashabbus guruxi bilan uchrashuvda so'zlagan nutqida xalqimiz ma'naviyatini tiklash va boyitish, bunyodkorlik ruxi bilan qurollantirish konsepsiyasini o'rta qo'ydi. "Chunki ta'lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa ko'zlagan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi"¹⁷.

¹⁷ Barkamol avlod orzusi. – T.: Sharq, 1999. – b.40.

Prezidentimiz milliy mentalitetni o'zgartirish jarayonlarini tadrijiy tarzda amalga oshirishga amaliy faoliyatni asosan ikki yo'nalishda tashkil etish, ya'ni birinchisi, azaliy an'analarimizga, bugungi milliy taraqqiyotimizga xizmat qiladigan xalqimizning urf-odatlarini, tili, dini, ruxiyatiga, qisqacha aytganda, dunyoqarashi va tafakkuriga asoslanish bo'lsa, ikkinchisi – umuminsoniy va zamonaviy yutuqlarga tayanish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatib berdi¹⁸. Ma'lumki, tafakkur tarzi, dunyoqarash, ruxiyat omillari, fe'l-atvor, xarakter tizimida o'zak jihatlar hisoblanib, barcha o'zgarishlarning ibtidosidir. Tafakkur tarzining tokomillashuvida esa ma'naviy-ma'rifiy omillar muhim ro'l o'ynaydi.

Mamlakatimizda "Ta'lim to'grisida" gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi va ma'naviy omilning davlat siyosatida ustuvor yo'nalishga aylantirilishiga olib keldi. "Bu hujjatlardagi vazifalar to'liq amalgam oshgan taqdirda – deydi I.A. Karimov "Tafakkur" jurnali bosh muharriri savollariga javob berar ekan, – ular, birinchidan, ijtimoiy- siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir qiladi va natijada mamlakatimizda mavjud muhit butunlay o'zgardi.

Ikkinchidan, ta'limning yangi modeli ishga tushgach, insonning hayotdan o'z o'rnini topish jarayoni tezlashadi. Har qanday odam ham o'smirlik chog'ida, endigina voyaga yetib kelayotgan davrida jamiyatdan munosib o'rinni topishi kerak. Aks holda bu narsa noxush oqibatlariga, ba'zan esa og'ir fojealarga, hatto ijtimoiy larzalarga ham sabab bo'ladi"¹⁹.

Bu borada amalga oshirilgan keng ko'lamdagi faoliyat millat fe'l-atvori, tafakkuri o'zgarishlariga jiddiy turtki berdi. Ikkinchidan esa jamiyatimizning rivojlangan davlatlar bilan hamkorligi doiralarining, ilmiy-texnikaviy, madaniy uyg'unlashuv muntazam kengayib borishi kishilarimiz dunyoqarashi, turmush tarzida yangicha yondashuvlarni tarkib toptirayotir. Binobarin, har qanday taraqqiyot, sivilizatsiyalar turli xalqlar ma'naviyati, madaniyati, erishgan yutuqlari va intilishlarining sintezidan tug'uladi.

¹⁸ Bekmurodov M. O'zbek mentaliteti. – T., 2011. – b. 19.

¹⁹ Barkamol avlod orzusi. – T.: Sharq, 1999. – b.41- 42.

Bugungi o'zbek mentaliteti bozor munosabatlari hamda hozirgi zamon informatsion intellektual texnologiyalarning ustuvorligi davrida yana qanday xususiyatlarga ega bo'lishi zarur? O'zgarayotgan zamon va yangilanayotgan makon dunyo xalqlari fe'l-atvori tizimida miya faolligi, sa'y-harakatlarda tezkorlik, topqirlik va ayni chog'da har bir ishda rejalilik, puxta tayyorgarlik, fahm-farosat, muammolarni hamkorlik asosida hal etish xususiyatlarining rivoj topishini taqozo etmoqda. Shuningdek, shaxs va jamiyat, shaxs va davlat munosabatlari tizimida alohida subektlar – insonlar rolining benihoya oshib borishi kuzatilmoqda.

Bozor munosabatlari insonni tartibli hayotga undaydi, fikrlab ish tutishga, tadbirkorlikka da'vat etadi. Bozor hamma narsaga ongli yondashuvni, oqillik bilan munosabatda bo'lishni talab etadi. Meyorsiz bag'rikeglik, hatomtoylik, sahovatpeshalik, serchiqimlilik, hisobsiz sarf-harajat qilishga moyillik singari odatlarimizni ma'lum darajada cheklaydi. Har narsaga aql ko'zi bilan qarash asta-sekin turmushning bosh tamoyiliga aylanib baradi. Bu esa yurtboshimiz ta'kidlagan ekzistensialistik ya'ni hayotga bugungi talablardan kelib chiqib, xushyor va oqilona yondashuvlarni yoshlarimiz fe'l-atvoriga singdirish nechog'li dolzarbligini yanada ravshan ko'rsatadi. Odatiy hayot tarzimizda biz o'zimizni doimiy ekzistensial holatida ya'ni yashashga mas'ul va yashayotgan shaxs sifatida muntazam his etib turmaymiz. Biz o'zimizni emas ko'proq bashqalarni kuzatishga, kuzatayotganda ham tizimli emas, betartib qayt etib yurishga moyilmiz. Ekzistensialistik yondashuv insonni ongli, xushyor, sergak, o'zini tirik, oqil mavjudot sifatida doimiy anglash va his etib turishga undovchi kuchdir. Bunday yondashuv insonda o'zini o'zi doimiy tarzda yangilab borish, tashqi shart-sharoitlarga moslashuvchanligi, o'zini o'zi muhofaza eta bilish, muntazam ravishda takomillashuvni ehtiyoj sezish xususiyatlarini tarkib topdiradi. Ekzistensialistik yondashuv kishini konformizmdan, ya'ni hamma narsaga ko'nib ketaverishdan, ortiqcha qonoatdan befarqlik va loqaytliklarga berilishdan halos bo'lishga, o'z so'zi, o'z nuqtai nazari e'tiqodida qat'iy va barqaror bo'lishga da'vat etadi.

Ekzistensializm o'z so'zi, ishi va taqdiri uchun mas'ullik hissini ham tarkib topdiradi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mazkur g'oya ulug' ajdodimiz Abu Mansur al-Motridiyning "har bir inson u dunyo va bu dunyodagi taqdirini o'zi yaratadi, inson erkinligi, hurligini ta'minlovchi kuch – har bir hayotiy vaziyatda oqilona meyor, murosaviy muvozanatni ta'minlay bilish tomoyillariga rioya qila olishdan iboratdir" degan konsepsiyasiga ayni muvofiqligini hamda insonning har ishga qodirligi va mas'ulligi g'oyasining mamlakatimiz tarixida ma'naviy poydevori mavjudligini ko'rsatadi.

Umumiylashuv jarayonlarining kengayishi insonning hayot va jamiyatdagi o'rni masalasiga o'zgacha yondashuv zaruriyatini kun tartibiga chiqarmoqda. Shaxsning jamiyatdagi o'rni tobora qat'iylashib, uning bevosita o'z imkoniyatlari orqali muayyan jamoa, gurux vositasida ijtimoiy hayotga ko'rsatuvchi ta'siri ortib bormoqda. Ma'lumki, ayni davrdagi demokratiya tartibotlari G'arb dunyosida tug'ilgan hodisadir. Hozirgi dunyo xalqlari hayotiga singdirilayotgan demokratiya tomoyillari G'arbiy Yevropa xalqlarga mos bo'lgan turmush tarzining ifodasidir.

Butun dunyoda yuz berayotgan globallashuv, ya'ni umummilliylashuvlarning mushtarak qismi sifatida namoyon bo'layotgan g'arbona demokratlashuv sharq xalqlari hayotiga muayyan qiyinchiliklar orqali tomir otmoqda. Bu yo'lda har bir davlat o'ziga xos murakkabliklar davriga o'tishiga, ba'zan esa kutilgan natijalarni mutlaqo teskari holatlarda ro'baro bo'lib qolishiga ham to'g'ri kelmoqda. Agar demokratiyaning asosiy talablaridan bo'lmish inson haq-huquqlarini teng ta'minlash va uni adolatli himoyalash zarurati an'anaviy buddaviylik diniga sig'inuvchi mamlakatlarda, xususan, Yaponiya, Koreya, Malayziya, Tayland singari davlatlarda bir qadar silliq kechayotgan bo'lsa, islom qonunlari barqaror bo'lgan Sharq mamlakatlarida bu jarayon jiddiy kataklizmlar, siyosiy buhtonlar, og'ir yo'qotishlar hisobiga amalga oshirilmoqda. Hatto g'arbona demokratiya tartibotlarni singdirishga bo'lgan ayrim urinishlar tamoman teskari oqibatlarini tug'dirib qo'ygani ham yaqin tariximizdan ma'lumdir.

G'arb xalqlari uchun har qanday muammoning yechimini manfaatlar hal etishi umumiy qonuniyatlar hisoblanadi. Manfaatlar silsilasida iqtisodiy manfaatlar

ustuvor ahamiyatga ega. Ingiliz mentalitetini yaxshi bilgan mashhur davlat arbobi U. Cherchill “Angliya taqdirini uning doimiy do’stlari emas, balki doimo o’zgarib turuvchi manfaatlari belgilab kelgan” degan edi.

G’arbdagi moddiy real manfaatlar ustuvorligi qadriyatlardan farq qilib, sharq xalqlari uchun bosh qadriyat ma’naviy omillar, ayniqsa, inson sha’ni, obro’ e’tibori, nafsoniyati, oriyati, vijdoni hisoblanib kelgan. Ma’naviy talablar esa o’z-o’zidan qadriyatlar qatorini mutanosiblashtirishni, birining ketidan mantiqiy ravishda ikkinchisini qo’yishni taqozo etgan. Xususan, otaga ehtirom, ona e’zoi, aka va uka hurmati, qavm-qarindoshlar totuvligi, qo’ni-qo’shnilar ahilligi qadriyatlar sifatida muayyan ketma-ketlikda, qadrlanish darajasiga ko’ra ierarxik shaklda hayotdan o’rin olib kelgan. Qadriyatlar qatoridagi tartiblarning buzilishi jamiyat va davlat tartibotlarining susayishiga ta’sir etgan. Ierarxiya sharq turmish tarzining maromini belgilab turuvchi muvozanat meyor, eng asosiy tamal toshlaridan hisoblangan. Ierarxik tizim hamma jarayonlarning o’z oqimiga ketishga, po’rtanalar yuz bermasligiga kafolat vazifasini o’tab kelgan.

Shu boisdan ham O’zbekistonda xalqimiz ma’naviy yaxlitligini saqlab qolish, o’zlikdan chekinmaslik, sof insoniy fazilatlarga tayanib ish tutish asosida istiqbolga intilish siyosati izchil yuritilmoqda.

Binobarin, demokratiyaning asl mohiyati jamiyatda adolat tamoyillarini qaror toptirishdan iborat ekanligini e’tiborga olsak, mamlakatimizda mazkur jihat quyidagi omillarda yaqqol ko’rinadi. Birinchidan, fuqorolarning tinchligi va millatlar aro totuvlik tamoyili umumjamiyat miqyosida yalpi qaror topganligida; ikkinchidan, fuqorolarning turli ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma’rifiy jamiyatlarga birlashish erkinligi kafolatlanganligi va real amal qilayotganligida; uchinchidan, ma’naviy, ma’rifiy va odob-axloq tamoyillari orqali insonning insonligini o’ziga anglatishdan iborat umumjamiyat harakatining izchil amalga oshirilayotganligida; to’rtinchidan, bozor iqtisodiyotining shavqatsiz muhitiga insonni kuchli ijtimoiy himoya qilish orqali bahamjihat kirib borish siyosatiga qat’iy amal qilayotganligida yaqqol namayon bo’lmaqda. Mazkur omillarning umumiy va

pirovard majmui esa mamlakatimizda adolat tamoyilining o'ziga xos va o'ziga mos tantanasini ifoda etadi.

Shunday qilib, Sharq xalqlari uchun G'arbga xos bo'lgan hammani bir xil qarichda o'lchovchi total, ya'ni yalpi tenglik formulasi emas, balki insoniylik to'laroq bajariluvchi ierarxik tenglik (pastdan yuqoriga, bosqichma-bosqich rioya qilinuvchi munosabatlar tizimi) fomulasi ko'proq mos keladi.

Ierarxik tenglik formulasi Konfutsiy ta'kidlagan insoniy qanoat, insof, diyonat, hurmat-ehtirom, kattaga hurmat, kichikka izzatdan iborat. Anglangan cheklanishlarni e'tiborga olgan holda yashashni taqoza etadi. Mazkur talab jamiyatni faqat qonunlar kuchi orqaligina emas, balki ma'naviyat undovi vositasida ham boshqarishga yo'l ochadi.

Ma'lumki, o'zbek xalqi tabiatdan yaxshiga havasli, ibratga moyil, kattaga ehtiromli, kichikka izzatli, ergashuvchanlik mayli kuchli xalqdir. Ana shu ergashuvchanlik, ibratga moyillik hislatlarini millat manfaatlariga bura olish, ularni vatan ravnaqi yo'liga safarbar etish, bu fazilatlarimizni nopok kimsalardan, shubhali siyosiy oqimlardan muhofaza etish, g'animlarning g'arazli kirdikorlariga qurbon bo'lishdan asrash favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ommaning ongini boyitish, boshqarish hamda bu jarayonlarni milliy manfaatlar va umuminsoniy tamoyillar mutanosibligi negizida amalga oshirish mamlakatning umumiy intellektual – estetik, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga, siyosiy va axloqiy barqororligiga mustahkam zamin yaqatdi. Jamiyat taraqqiyoti jarayonlarini xalqimiz tabiatiga o'tmishdan salbiy meros sifatida o'tgan ratsionalistik kayfiyatlardan, ya'ni voqelikni chuqur his etmaslik, yuz berayotgan jarayonlar, o'zgarishlarni, tashqi va ichki xavflarni anglab yetmasdan g'aflatda yashayverishdan ishonchli muhofaza etadi.

Xullas, madaniy antropologiya insonning tabiiy va ijtimoiy muhitdagi holatlarni turli fanlar, xususan, falsafa, sotsiologiya, psixologiya, biologiya orqali, shuningdek, xalqlarning ijtimoiy xarekteri, mentaliteti vositasida ham atroflicha o'rganishga erishdi.

1.2. Inson rivojida milliy-etnik xususiyatlarni o'rni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov inson omilini faolashtirishda uch asosiy tamoyil, ya'ni ma'naviyat, ma'rifat va odob-axloq omillarining favqulodda zarurligini alohida qayd etadi. Ayni chog'da mazkur tamoyillarning o'zaro mutanosibligi, ichki uyg'unligi, oqilona me'yorlarda taqsimlanish masalasi ham muhim ahamiyatga egadir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, har qaysi inson va jamiyatning ma'naviy dunyosiga aynan shunday ko'z bilan qarash, odamni ongli yashashga, yetuklikka chorlaydigan bunday beqiyos qudrat manbayining hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini chuqur va atroflicha tahlil qilish muhim bir haqiqatni, ya'ni yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch ekanini anglatadi va tasdiqlaydi ²⁰.

Inson omilini ma'naviyatdan uzilgan holda faollashuvi jamiyatda individualizm, egoizm, shavqatsizlik, millatchilik singari illatlar rivojiga yo'l ochadi. Shuningdek, yoshlar tarbiyasini ilm-ma'rifat bilan birga olib bormaslik jamiyatda konformizm, biqiqchilik, urf-odatlariga mukkasidan ketish singari holatkatning avj olishiga olib kelishi mumkin. Insoniyatning yaqin 3000 yillik tarixiy taraqqiyot tajribasi shundan guvohlik beradiki, yaxshilik, ezgulik, savob, hamdardlik fazilatlarini o'zida ifodalovchi ma'naviyat omiliga befarqlik va ilm-fan rivojiga bir yoqlama, texnokratik ruju qo'yish inson shaxsning axloqan yemirilishi, ma'naviy tubanlashuviga sharoit tug'dirib kelgan.

Yurtboshimiz mazkur tamoyillarning uyg'un mutanosiblikda amal qilishi faqat tizmiy tartibotlar yuzaga keltirilgandagina samara berishini ta'kidlaydilar. "Barchamiz yaxshi bilamizki, fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishning eng muhim tarkibiy qismi ma'naviyat va ma'rifat sohasida, muntazam kamol toptirish borasida uzluksiz ish olib borishdan iborat. Bu hayotiy haqiqat, biz hamisha amal qiladigan tamoyilga, jamiyat rivojining asosi va shartiga aylanmog'i hamda o'zida yaxlit bir tizimni mujassam etmog'i lozim. Bu tizim markazida ma'naviyat, axloq-odob, ma'rifat kabi o'lmas qadriyatlar turmog'i kerak". Shu boisdan ham

²⁰ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – b. 128.

O'zbekistonda xalqimiz yahlidligini saqlab qolish, o'zlikdan chekinmaslik, sof insoniy fazilatlariga tayanib ish tutish asosida istiqbolga intilishdan iborat keng ko'lamdagi ijtimoiy siyosat izchil yuritilmoqda. Binobarin, demokratiyaning asl mohiyati jamiyatda adolat tamoyilini qaror toptirishdan iborat ekanligini e'tiborga olsak, mamlakatimizda mazkur jihat quydagi omillarda yaqqol ko'rinadi. Birinchidan, fuqarolarning tinchligi va millatlararo totuvlik tamoyili umumjamiyat miqyosida yalpi qaror topganligida, ikkinchidan, fuqarolarning turli ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy jamiyatlarga birlashish erkinligi kafolatlanganligi va real amal qilayotganligida, uchinchidan, ma'naviyat, ma'rifat va odob-ahloq tamoyillari orqali insonning insonligini o'ziga anglatishdan iborat umumjamiyat harakatning izchil amalga oshirilayotganligida, to'rtinchidan, bozor iqtisodiyotining shavqatsiz muhitiga insonni kuchli ijtimoiy himoya qilish orqali bahamjihat kirib borish siyosatiga qat'iy amal qilinayotganligida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Mazkur omillarning umumiy va pirovard majmui esa mamlakatimizda adolat tamoyilining o'ziga xos va o'ziga mos tantanasini ifoda etadi.

Zero, demokratiya nafaqat shaxs haq-huquqlarini himoyalash, balki boshqalarga halal bermay yashash, jamoaga doimiy ravishda ijtimoiy naf keltirib borish omili hamdir.

Shaxsning siyosiy, iqtisodiy va ekologik jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari oshganligi munosabati bilan dunyoda inson omiliga yangicha nuqtai nazar bilan qarash tendensiyasi kuchaydi. Insonga yondashish, uni o'rganish va boshqarish masalalari atroflicha o'rganila boshladi.

Inson omilini faollashtirish muammosiga istiqbolimizning dastlabki yillaridayoq O'zbekistonda ham ustuvor masala sifatida yondashib kelinmoqda. Prezidentimiz Islom Karimov istiqbolimizning dastlabki yillaridanoq demokratik davlat boshqaruv masalasiga jiddiy e'tibor qaratib, "boshqaruv vazifalarining asosiy qismi markazdan viloyatlarga, viloyatlardan shahar, tumanlardagi davlat va boshqaruv idoralariga o'tishini ta'minlash darkor. Shu tariqa bu bosqich asta-sekin o'z-o'zini boshqarish, jamoatchilik tashkilotlariga ham yetib boradi", - deb ta'kidlagan edi. O'tgan yillar mobaynida mazkur siyosatning to'g'riligi o'z isbotini

topib, “Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari” shiori ijtimoiy boshqarishning bosh tamoyiliga aylanib qoldi.

Binobarin, endilikda davlat o‘z vazifalarini hokimiyatni kuchaytirish hisobiga emas, aksincha, demokratik omillarni kengaytirish va keng xalq ommasini boshqaruvga jalb etish yo‘li bilan amalga oshirilmoqda.

Ma‘lumki fuqorolarning tafakkuri, siyosiy saviyasi demokratik o‘zgarishlar sur‘atlari bilan mos bo‘lsa, boshqaruvni demokratiyalashga zamin yaratadi. Shuning uchun ham demokratik o‘zgarishlar hamda yangi demokratik jarayonni chuqurlashtirish va ularni hayotga tatbiq etishni eng avvalo jamiyatimizning o‘zi anglamog‘i va hal qilmog‘i darkor. Bu borada jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan mahallaning o‘rni beqiyos va o‘zini-o‘zi boshqarish tartibini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu boisdan shaxs taraqqiyoti oldimizga qo‘yilgan ulug‘vor vazifalarni hal etishda g‘oyat dolzarb masala hisoblanadi. Shaxsni rivojlantirish uchun jamiyatimizda barcha imkoniyatlar hozir. Hamma gap bu imkoniyatlardan odamlar nechog‘li foydalana olishlaridadir. Buning uchun hozirgi paytda umumjamiyat miqyosida har bir shaxs uchun individual taraqqiyot dasturlarini tarkib topdirish kun tartibidagi masala hisoblanadi. Individual taraqqiyot dasturlari barcha maktab o‘qituvchi va o‘quvchilari, universitet talabalari, korxonalar (davlat va nodavlat tashkilotlari) jamoat tashkilotlarida faoliyat yurituvchi xodimlar uchun umumiy tarzda joriy etilmog‘i va ommaviy axbarot vositalari, radio va televediniya orqali ko‘rsatib, eshittirib, ommaviylashtirib borilishi, shubhasiz, ijobiy samaralar beradi.

Kuchli ijtimoiy-siyosat konsepsiyasi o‘tgan 20 yillik zafarli tiklanish davrlarida mohiyatan yangi mazmunga ega bo‘ldi.

Shu boisdan ham Prezidentimiz tomonidan ustuvor yo‘nalish sifatida asoslab berilgan. Inson omili masalasi o‘ta muhim, serqirra masaladir. Bu esa inson omilining, yurtboshimiz haqli qayd etganlaridek, demografiya, ijtimoiy himoya, ma‘rifat, ma‘naviyat, odob-axloq tamoyillariga bevosita bog‘liq holda

amal qilishni taqazo etadi. Chunki inson omili masalasi – jamiyatda odamlardagi ijtimoiy fazilatlar, ularning qadriyatlar tizimi ham demakdir.

Inson omili tushunchasi faqat bitta odamga emas, balki odamlar guruxi, jamoalar va ularda ijtimoiy-ma'naviy muhitga, odamlarning xulq-atvoriga ham bog'liq bo'ladi.

Inson omili – har odamning imkoniyatlarini oshirish, uni kuchaytirish ham demakdir. Bu esa har bir kishiga xos biologik, psixologik va intellektual salohiyatni kuchaytirishni taqazo qiladi. Bu jarayonning pishiq, puxta bo'lishi, bir marotabalik tadbir bo'lib qolmasligi uchun u ilmiy asosga qurilmog'i kerak. Ya'ni inson omilini takomillashtirishning nazariy, imperik asoslarini yaratish, o'zbekistonliklarning ijtimoiy va mehnat faolligini, ularni jamiyatni boshqarishga real jalb qilishning ijtimoiy mexanzlarini ishlab chiqish, shaxs manfaatlarini ifodalashning oshkorligini ta'minlash zarur.

Inson omili faol bo'lmasa, millatimiz oldida turgan birorta ulkan vazifa uddalana olmaydi. Inson omili va uning ahamiyati, taraqqiyotdagi o'rni deganda nimalar nazarda tutiladi? Bularga insonning o'z faoliyatida, munosabatlarida namoyon bo'ladigan quyidagi jihatlar kiradi:

- Odamlarning kayfiyati;
- Tuyg'ulari;
- Odatlari, ijtimoiy mo'ljallari;
- Qadriyatlari;
- Yakka va gurux shaklidagi xulq-atvorlari;
- Nima(kim) larga taqlid qilishi;
- E'tiqodi;
- Qobiliyatlari;
- Layoqat va motivlari;
- Tevarak-atrofga munosabatlar;
- Odamlar orasidagi munosabatlar;
- Jamoadagi ma'naviy muhit va boshqalar.

Ijtimoiy gumanitar fanlar yuqoridagi holatlarning paydo bo'lishi, o'zgarishi va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganishi lozim. Inson omilini jamiyat farovonligi sari boshqarish yo'llarini izlab topish, uni faollashtirish vositalarini yaratish esa o'ta muhim amaliy tadqiqot yo'nalishini belgilab beradi. Inson omili bilan bo'g'liq nazariy muammolar va amaliy vazifalar yechimi ijtimoiy-gumanitar fanlarning kompleks taraqqiyotini tashkil qiladi. Ushbu kompleks ma'naviyat, milliy istiqloq g'oyasi shaxs taraqqiyotining qudratli omilini tashkil qiladi.

Insonning hayot o'zgarishlarida to'g'ri yo'l belgilashi tabiat va ijtimoiy muhitda yuz berayogan hodisalarni qay tarzda anglashiga ko'p jihatlardan bog'liq bo'lib, bu anglash jarayonlari esa voqea-hodisalar, narsalarning mazmunini aynan ifodalash, chuqur tushunib etishiga yo'l ochadi. Darhaqiqat, dunyoda jamiki yuksak rivoj topgan mamlakatlarning xalqlari fe'l-atvori, xarakteriga e'tibor qaratsak, ular hamma narsaga xushyorlik bilan, ehtiyotkorlik hamda me'yor darajalari doirasida baho berishga moyilliklari, predmetlarni o'z ko'lami, hajmidan ortiq yoki kam ta'riflamaslikka intilishlariga amin bo'lamiz. Qadimgi Xitoy mutafakkiri Konfutsiy bundan 2500 yil muqaddam nomlar voqea va hodisalar, predmetlar mazmuniga ayni mos bo'lishi zarurligini alohida ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra bilaks, noto'g'ri ta'rif voqea qanday ekanligini ifodalay olmaydi va noto'g'ri so'zlar yuzaga keladi. Noto'g'ri so'zlar esa ishning ijrosiga halal bera boshlaydi. Natijada ish bajarilmaydi. Ish bajarilmagandan keyin marosim va musiqaga ehtiyoj, hojat qolmaydi. Marosim va musiqa rivoj topmagach umumiy kayfiyatlar izdan chiqib, yaxshiga rag'bat berish tartiblari buziladi jazolar noto'g'ri, nohaq belgilana boshlaydi. Gunohlar uchun jazolar noto'g'ri belgilana boshlagach esa, omma o'zini qanday tutishni bilmay qoladi. Oxir oqibatda esa jamiyatda subutsizlik, yolg'onchilik aldov, muttahamlilik, va'dabozlik keng yoyiladi²¹.

So'zning ishga, voqelikka aynan muvofiq holatga keltirish uchun buyuk ajdodlarimiz jiddiy sa'y-harakatlar qilganlar. Tarixdan ma'lumki, Amir Temurga

²¹ Istoriya kitayskoy filosofii, M.: - 1959. Izd. ANSSSR, 246 - s.

uning Hindistonga qilgan zafarli yurishiga bag'ishlangan tarixiy kitob Nizomiddin Shomiy tomonidan yozib tugatilgandan keyin tortiq qilinganda, sohibqiron kitob bilan tanishib chiqqach, uning ifoda kuchi va mantiq uslubi bo'lib o'tgan voqealarni aynan aks ettira olmaganligi uchun muallifga qattiq tanbeh berganligi va asarni qabul qilmaganligi katta saboqdir.

So'zlar va ta'riflarning hayot haqiqatga nomuvofiqligi buyuk Xorazmshohlar davlatining inqiroziga, Mirzo Ulug`bekning achchiq qismatiga, Boburning o'z yurtidan badarg'a bo'lishiga sabab bo'lgan, xalqimizning necha bor bosqinchilar tomonidan istilo bo'lishiga olib kelgan. Fikri bilan so'zi, so'zi bilan amali, amali bilan shaxsiy turmushiga monand va mos insonlarga xalqimiz qadim-qadimdan "Yan" ilohiyotiga xos "butun odam" deb ta'rif berib kelganlar.

Butunlikka erishish, xalqning ma'naviy butunligini ta'minlash uchun 3000 yillik ongli yozma tariximiz mobaynida ko'p martalab urinishlar bo'lgan. Bu borada Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida bir qadar muvaffaqiyatlarga erishilgan. Muayyan guruxlar, urug'lar, jamoalar doirasida butunlik, komillik darajalarini ta'minlashga muvaffaq bo'lingan. Ammo, butun mamlakat, millat darajasida yalpi butunlikka erishish uchun umumiy sa'y-harakatlar ham, bunday birlashish zarurligini chuqur anglash holatlari ham bo'lmagan. Umummilliy intilishlarga qaraganda jamoaviy, sulolaviy, qabilaviy, guruxiy birlashuvlarga intilish va shunday uyushuvlar orqali ma'naviy komilikka urinishlar, afsuski, ustuvor bo'lib kelgan.

Ko'p ming yillik tariximiz mobaynida umummilliy komillik va butunlikka bo'lgan intilishlar ilk daf'a mustaqillik tufayli xalqimizga nasib etdi. Prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan xalqimizning ma'naviy komilligi, millat butunligini tarkib toptirish va rivojlantirish kontsepsiyasi ishlab chiqildi va amalga oshirila boshlandi. O'zgarayotgan zamon va yangilangan makon mantig'i xalq xarakterida ilgari yetarli rivoj topmagan yangi fazilatlarni tarkib toptirish zaruratini kun tartibiga qo'yayotganligi bois, yurtboshimiz xalqimizni ma'naviy uyg'onish, xushyorlik, atrofga keng nazar tashlash, qiyoslab harakat qilishga da'vat etib kelmoqda. Hamma narsani inkor etaverishdan iborat nigilizmdan voz kechish,

tushunib-tushunmasdan ko'krakdan itarishdan iborat illatlarimizni tashlash, avval yuzimizni o'girib kelgan ba'zi qadriyatlarga boshqadan holis baho berish masalasi o'rta qo'yilmoqda.

Prezidentimiz "Fidokor" gazetasiga bergan intervyusida haqiqatni topish uchun qarama-qarshi fikrlarni o'rta qashlash zarurligini ilgari suradi. Yurtboshimiz "Talabalar ziyoli yoshlarimizning o'zi kerakli xulosani chiqarib olsin. Mana, misol uchun Freydning nazariy qarashlari, pragmatizm va ekszistentsializm g'oyalari, Berdyaev va boshqalarning falsafasidan o'rgansak, foydadan holi bo'lmaydi. Biz ko'p masalalarda g'arb faylasuflarining fikrlari bilan, ayniqsa, individualizm, egoizm qarashlarini ilohiylashtirish bilan kelishmasligimiz mumkin. Lekin ularni hisobga olishimiz keraklisini e'tirof, keraksizini inkor etishimiz zarur" – deb o'qtirganlari nechog'li haqiqat ekanligini hayot tasdiqlamoqda. O'zbek mentalitetidagi ana shu jihat, ya'ni o'zgalarning fikr-qarashlarini oqilona me'yor darajasida baholashga no'noqligimiz, goh juda oshirib yurtboshimiz, gohida esa boshqalarning nuqtai-nazarini mensimaslik, bepisand qarashdan iborat xususiyatlarimizni tan olib o'z-o'zimizni ma'naviy butlash yo'lida jiddiy tarbiyaviy ish olib borishimiz zarurdir.

Xullas, o'zbek mentalitetini zamon mantig'iga muvofiq evolyutsion o'zgartirishning yahlit tizimi quyidagi jihatlar ro'yobini taqoza etadi.

1. Xalqimiz turmush tarzi, urf-odatlar, fe'l-atvori mazmunini umummilliy ko'lamlarda qayta-qayta chuqur mushohada etish, ortiqcha marosimbozlik, isrofgarchiliklardan bosqichma-bosqich qutulish yo'lidan borish;

2. Barcha sa'y-harakatlar, amallar, an'analar, to'y va marakalarni bajarish jarayonlarida qat'iy me'yor talablariga rioya qilishga o'rganish kichik oilaviy tadbirlarni mahalla, region, tuman, butun shahar miqyosidagi maraka-marosimlarga aylantirib yubormaslikka intilish;

3. So'z va ish birligiga rioya qilish, va'dabozlik, ortiqcha chiranish, eskapizm, maqtanchoqlikka moyillik singari illatlarga qarshi kurash olib borish, har bir narsa, hodisani o'z nomi bilan aynan ifodalashga o'rganish;

4. Butunlik falsafasini turmush tarzimiz, fe'l-atvorimiz mazmun mohiyatiga aylantirish, yosh avlod vakillarini butun shaxslar qilib shakllantirish, fikri so'ziga, so'zi amaliga, amali vatan manfaatlariga ayni muvofiq bo'lishiga erishish;

5. Odamlarda o'z fe'l-atvorlari, sa'y-harakatlari, intilishlari, ma'naviy qiyofasining holati xususida shaxsiy taftish malakasini shakllantirish, o'zi ustida doimiy ishlash, takomillashuv, o'zidan qoniqmaslik fazilatlarini shakllantirish, o'zi yonib boshqalarni ham yondira olish xususiyatlarini tarkib toptirish;

6. Ezgulik yo'lida fidoiy bo'lish, yaxshilik qilishga, boshqalarning tashvishiga yelkadosh bo'lishga tayyorlik fazilatlarini kamol toptirish;

7. Vatan ravnaqi xalq farovonligi yo'lidagi intilishlar bilan shaxsiy sa'y-harakatlardan qutiluvchi manfaatlar ustunligiga erishish, Vatanning ostonadan faqat ichkariga emas, balki, tashqariga ham davom etishini chuqur anglash;

8. Yoshlarda ezgu va savob ishlarni har kuni va hamisha qilishga tayyorlik va shunga kuchli ichki rag'bat, ehtiyoj, intilish fazilatlarini tarkib toptirish;

9. Milliy merosni yalpi o'zlashtirish, qadriyatlarimizdan chin iftihor tuyg'ularini his etish, g'ururlanish va zavq ola bilishni tarbiyalash;

10. Insof, adolat, halollik, vijdon singari tamoyillar tarbiyasini doimiy ravishda muntazam tarzda olib borish, bu ishda rahbarlar, obro'li shaxslar, lider – yetakchilar, ota-onalarning shaxsiy ibrati omilidan samarali foydalanish;

11. Fuqarolarda o'zini jamoaning nafaqat miqdoriy – jisman a'zosi, balki, ma'naviy bo'lagi deb his etish, umumiy intilishlar, sa'y-harakatlar, maqsadlar tizimi, mazmuniga har bir inson o'z ulushi, hissasi nechog'li ekanligini angla shuni shakllantirish;

12. Intellektual mulk ustuvor ahamiyat kasb etayotgan hozirgi zamonda har tomonlama va chuqur bilimlar sohibi bo'lishiga intilish umumjahon taraqqiyoti jarayonlariga faol integratsiyalashuv yo'lidan borish katta ahamiyat kasb etadi.

Xullas, buyuk kelajak taqdiri, ozod va obod jamiyat qurilishi o'zimizning qulimizda ekanligi, bu maqsad barchamizning ma'naviy o'lchovimiz, shaxsiy va ijtimoiy mo'ljalimizga aylanishi bugungi kun taqozosidir. Darhaqiqat, Prezident

Islom Karimov o'zining Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n to'rtinchi sessiyasidagi ma'ruzasida alohida qayd etganlaridek "mamlakatimizning tarixiy va milliy xususiyatlarini, xalqimiz tabiatini, mentalitetini inobatga oluvchi rivojlanishning mazkur yo'li biz uchun nihoyatda maqbuldir"²².

Tabiiyki, yurtimizning asl farzandlari tomonidan xalqimizning milliy o'ziga xosligini saqlab qolish, uning ma'navi poydevorlariga jiddiy putur yetkazmaslik uchun olib borgan goh oshkora, goh hufiyona kurashida quyidagi omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi:

1. Xalqimiz tarixiy-madaniy ildizlarining teranligi va sertomirligi, boy ma'naviy merosning mavjudligi;

2. Xalqimizning asosan o'troq hayot kechirib kelganligi, o'troq hayot esa turg'un mazmundagi urf-odatlarni taqozo etishi, aholining ijtimoiy-ma'naviy mo'ljallarida shahar ruxi, ma'naviyatining an'anaviy ustuvor mavqe kasb kelganligi;

3. Xalqimizning o'z milliy madaniyati, tili, san'ati, adabiyotiga muxabbati, urf-odatlar, rasm-rusumlar, an'ana va marosimlarga sodiqligi, xalq odatlariga millatning ma'naviy qiyofasi sifatida e'zozlab yondosha bilganligi;

4. Islom dini bilan xalq, an'anaviy madaniyatining uyg'unlashuvi, ta'qibdagi din bilan mazlum bo'lgan xalqning ozodlik uchun kurashida e'tiqodiy birlik holati tarkib topganligi va mustahkam amal qilib kelganligi;

5. O'zbek xalqining chidamliligi, cheksiz chegarasiz sabr-bardoshi, bag'ri kengligi, g'animlarni behtiyor qurolsizlantirishga qodir sofdilligi, samimiyati, mehribonligi, yordam va hamisha hamkorlikka shay qalbi va hokazo omillar xalqimizning ma'naviy, etnik hamda ijtimoiy-siyosiy voqelik sifatida saqlana bilganligi va yashovchanligiga imkon berdi.

Istiqlol hammamizga mamlakatni yalpi sog'lomlashtirish, milliy bir butunlikni ta'minlash, ma'naviy yahlitlikni yuzaga keltirish masalasini kun

²² I.A.Karimov O'zbekisgon XXI asrga intilmoqda. T.:O'zbekisgon 1999. – b.14

tartibiga qo'yadi. Bugungi kun mantig'i xalqimiz fe'l-atvori, mentaliteti o'zgarishlariga jiddiy e'tibor qaratishga undaydi.

Prezident Islom Karimov "Tafakkur" jurnali va "Fidokor" gazetasiga bergan intervyularida, shuningdek, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati tashabbusi guruxi bilan uchrashuvda so'zlagan nutqida xalqimiz mentalitetini jiddiy o'zgartirish borasida dasturiy konsepsiyani o'rta qo'ydi. Davlatlararo va mintaqalararo siyosiy va iqtisodiy muloqot doiralarida o'z so'zini ayta boshlagan mamlakatimiz uchun tarafdorlar bilan bir paytda, xolis tashqi va ichki siyosatimiz, "karvon o'tar..." faoliyatimiz va bunyodkor sa'y- harakatlarimizdan hasadgo'ylar, g'ayirlar guruxlari ham talay ekanligi ravshan bo'ldi. Ana shunday ijtimoiy-siyosiy vaziyat holatida nafaqat davlatning mustaqilligi, balki jamiyatimiz, har birimizning jipsililigimiz kuchi dolzarb masalaga aylandi. Shu boisdan ham yurtboshimiz xalqimiz tabiatidagi ishonuvchanlik, soddadillik, ochiq ko'ngillik fazilatlarini ijobiy hol sifatida qayd etish bilan birga, taqshi xavf-hatarlar huruji kuchaygan murakkab shart-sharoitlarda mazkur xususiyatlarning amaliy o'rni xususida jiddiy o'ylab kurishga da'vat etadi.

Xususan, yurtboshimiz tashqi tazyiqlar va ichki xavf-xatarlarga "soddadillik bilan, yuzaki tushunchalar" bilan na qarshi tura olish va na kurasha olish mumkin emasligini alohida o'qtiradilar. Prezidentimiz millat mentalitetini o'zgartirish jarayonlarini tadrijiy tarzda amalga oshirishda asosan ikki yo'nalishda amaliy faoliyatlarni tashkil etish, ya'ni an'anaviy azaliy an'analarimizga, bugungi milliy taraqqiyotimizga xizmat qiladigan xalqimizning urf-odatlar, tili, dini, ruxiyatiga, qisqacha aytganda, dunyoqarashi va tafakkuriga asoslanib bo'lsa, ikkinchisi – umuminsoniy va zamonaviy yutuqlarga tayanish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatib berdi. Ma'lumki, tafakkur tarzi, dunyoqarash, ruxiyat omillari fe'l-atvor, xarakter tizimida o'zak jihatlar hisoblanib, barcha o'zgarishlarning ibtidosidir. Tafakkur tarzini takomillashuvida esa ma'naviy – ma'rifiy omillar muhim rol o'ynaydi.

Mamlakatimizda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning qabul qilinishi, ma'naviyat omilining davlat siyosatida ustuvor

yo'nalishga aylantirilishi, bu borada amalga oshirilgan keng ko'lamdagi faoliyatlar millat fe'l-atvori, tafakkuri o'zgarishlariga jiddiy turtki berdi. Ikkinchi jihatdan esa jamiyatimizning rivojlangan davlatlar bilan hamkorlik doiralarining, ilmiy-texnikaviy, madaniy uyg'unlashuv miqyoslarining muntazam kengayib borishi kishilarimiz dunyoqarashi, turmush tarzida yangicha yondoshuvlarni tarkib topdirayotir. Binobarin, har qanday taraqqiyot, sivilizatsiyalar turli xalqlar ma'naviyati, madaniyati, erishgan yutuqlari va intilishlarining sintezidan tug'iladi.

Bugungi o'zbek mentaliteti bozor munosabatlari hamda hozirgi zamon informatsion intellektual texnologiyalarining ustivorligi davrida yana qanday muhim xususiyatlarga ega bo'lishi zarur? O'zgarayotgan zamon va yangilanayotgan makon dunyo xalqlari fe'l-atvori tizimida miya faolligi, sa'y-harakatlarda tezkorlik, topqirlik va ayni chog'da har bir ishda rejaviylik, puxta tayyorgarlik, fahm-farosat, muammolarni hamkorlik asosida hal etish xususiyatlarini rivoj topishini taqozo etmoqda. Shuningdek, shaxs va jamiyat, shaxs va davlat munosabatlari tizimida alohida subektlar - insonlar rolining benihoya oshib borishi kuzatilmoqda.

Ana shu munosabat bilan I.Karimov xalqimiz xarakterida pragmatistik, ekzistentsialistik hamda ratsionalistik xususiyatlarni shakllantirish va rivojlantirish zarurligini ilgari surdi. Ma'lumki, pragmatizm - harakat, intilish ma'nolarini ifodalab, shu harakat orqali muayyan foyda, manfaatlarga ega bo'lishni, shaxsning maqsadli sa'y-harakatlari, faoliyatlari unga mehnatiga muvofiq naf, foyda keltirishini ifoda etadi. G'arb kishisi tabiatan individualist bo'lib, manfaat omili uning barcha harakatlarini faollashtiradi, faol shaxs sa'y-harakatlari uchun asosiy mezon vazifasini o'taydi. Bizda esa, shaxsiy foyda izlash boshqalardan ko'ra, o'zini ko'proq o'ylab ish tutish odob doirasidan chetdagi hol sanalib, kishini jamoadan begonalashtiruvchi, uni go'yoki xudbin qilib qo'yuvchi omil vazifasini bajarib kelgan.

Bozor munosabatlari insonni tartibli hayotga undaydi, fikrlab ish tutishga, tadbirkorlikka da'vat etadi. Bozor hamma narsaga ongli yondashuvni, oqillik bilan munosabatda bo'lishni talab etadi. Me'yorsiz bag'rikenglik, hotamtoylik,

sahovatpeshalik, agar lozim bo'lsa serchiquimlilik, hisobsiz sarf-harajat qilishga moyillik singari odatlarimizni ma'lum darajada cheklaydi. Har narsaga aql ko'zi bilan qarash asta-sekin turmushning bosh tamoyiliga aylanib boradi. Bu esa yurtboshimiz ta'kidlagan ekzistensialistik, ya'ni hayotga bugungi talablardan kelib chiqib, hushyor va oqilona yondoshuvlarni yoshlarimiz fe'l-atvorlariga singdirish nechog'li dolzarbligini yanada ravshan ko'rsatadi. Odatiy hayot tarzimizda biz o'zimizni doimiy ekzistensiya holatida, ya'ni yashashga mas'ul va yashayotgan shaxs sifatida muntazam his etib turmaymiz. Biz o'zimizni emas, ko'proq boshqalarni kuzatishga, kuzatayotganda ham ongli, tizimiy emas, betartib qayd etib yurishga moyilmiz. Ekzistentsialistik yondoshuv insonni ongli, hushyor, sergak, o'zini tirik, oqil mavjudot sifatida doimiy anglash va his etib turishga undovchi kuchdir. Bunday yondoshuv insonda o'zini o'zi doimiy tarzda yangilab borish tashqi shart-sharoitlarga moslashuvchanlik, o'zini o'zi muhofaza eta bilish, muntazam ravishda takomillashuvga ehtiyoj sezish xususiyatlarini tarkib toptiradi. Ekzistensialistik yondoshuv kishini konformizmdan, ya'ni hamma narsaga ko'nib kelaverishdan, ortiqcha qanoatdan, befarqlik va loqaydlilarga berilishdan halos bo'lishga, o'z so'zi, o'z nuqtai - nazari, e'tiqodiga kishilik va barqaror bo'lishlikka da'vat etadi. Ekzestentsialism o'z so'zi, ishi va taqdiri uchun mas'ullik hissini ham tarkib toptiradi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mazkur g'oya ulug' ajdodimiz Abu Mansur al-Moturidiyning har bir inson u dunyo va bu dunyodagi taqdirini "o'zi yaratadi, inson erkinligi, hurligini ta'minlovchi kuch – har bir hayotiy vaziyatda oqilona me'yor, murosaviy muvozanatni ta'minlay bilish tamoyillariga rioya qila olishdan iboratdir" degan konsepsiyasiga ayni muvofiqligini hamda insonning har ishga qodirligi va mas'ulligi g'oyasining mamlakatimiz tarixida ma'naviy poydevori mavjudligini ko'rsatadi. Shu boisdan ham tarbiyaviy faoliyatlarimizda xalqimiz ma'naviy merosi, xotirasida tarixan mavjud bo'lgan milliy fazilatlarimizni qaytadan tiklash va bugungi kunimizga xizmat qildirish yo'lidan borishimiz zarurdir.

O'zbek mentaliteti o'zgarishlari tizimidagi yana bir muhim jihat – aholi turli tabaqalari ijtimoiy-madaniy va siyosiy sa'y-harakatlari jarayonlarini me'yorik va ongli boshqarishdan iboratdir.

Ma'lumki, o'zbek xalqi tabiatan yaxshiga havasli, ibratga moyil, kattaga ehtiromli, kichikka izzatli, ergashuvchanlik mayli kuchli xalqdir. Ana shu ergashuvchanlik, ibratga moyillik xislatlarini millat manfaatlariga bura olish, ularni vatan ravnaqi yo'liga safarbar etish, bu fazilatlarimizni nopok kimsalardan, shubhali siyosiy oqimlardan muhofaza etish, g'animlarning g'arazli kirdikorlariga qurbon bo'lishdan asrash favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatning intellektual-ma'naviy darajasi qancha yuqori bo'lsa, qonunlarning o'rni va ro'li muttasil orta boradi. Shu boisdan ham atoqli nemis sotsiologi Zimmel odamlarni, ularning taraqqiyot darajasiga ko'ra uch xil boshqarish mavjud deb biladi. "Ba'zilarni, – deydi u, – shaxsiy namunalar, ko'rsatmalar bilan, boshqalarni urf-odatlar, rasm-rusum va an'analar bilan boshqarish, eng rivojlanganlarini esa, faqat qonunlar vositasidagina boshqarish mumkin".

Darhaqiqat rivojlangan g'arb mamlakatlarida xalq an'analari, urf - odatlari faqat maishiy turmush doiralarida amal qilib, bir qadar cheklangan bo'lib, fuqarolarning keng ko'lamlardagi hayot tarzi, davlat va jamiyat tuzilmalari, ijtimoiy munosabatlar tizimi asosan qonunlar vositasida boshqariladi. Yuksak rivojlangan an'anaviy sharq mamlakatlari – Yaponiya, Singapur, Janubiy Koreya singari mamlakatlarda ham xalq odatlari, an'analarning jamiyat hayotidagi mavqeiga nisbatan qonunlar ta'sirining salmog'i juda yuqoridir. Shunday ekan, mamlakatimizda ham umumiy iqtisodiy, texnologik va ma'naviy taraqqiyotimiz darajasi nechog'li yuqorilab borishi bilan jamiyat hayotiga qonunlarning o'rni va ro'li shunchalik ortib borishi tabiiy holdir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar, huquqiy davlat qurish, qonun ustuvorligini o'rnatish, yalpi ma'naviy tiklanish jarayonlari, fuqaroviy jamiyat va komil inson shaxsini tarkib toptirish vazifalari birinchi navbatda millat mentalitetini bugungi kun talablari bilan muvofiqlashtirish

zaruratini kun tartibiga qo'yadi. O'zgarayotgan O'zbekiston kelajagi ozod va ongli fikrlovchi fuqarolarning erkin tafakkur tarzi, ularning yangilikka tashna bunyodkorlik ruxi hamda faqat o'zgargan o'zbek mentaliteti vositasida yaratilishi shubhasizdir.

Dunyo o'zgarishlari mazmuni umumiy yondashuvlarga, murosa va hamjihatlikka erishishga da'vat etuvchilar bilan xususiy haqiqat tarafdorlari ya'ni faqat o'z manfaatlari yo'lida kurashuvchilar o'rtasidagi bahs-munozara keskinligining tobora ortib borishi bilan izohlanmoqda. Insoniyat yakdil fikr qilish, umumiy sa'y-harakatlarga erishish, siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy ziddiyatlarni faqat yalpi bartaraf etish uchun kurashish zarurligining zamon taqozosi ekanligini tobora ravshanroq anglamoqda.

Umumiylashuv jarayonlarning kengayishi insonning hayot va jamiyatdagi o'rni va roli masalasiga o'zgacha yondashuv zaruratini ham kun tartibiga chiqazmoqda. Shaxsning jamiyatdagi o'rni tobora qat'iylashib, uning bevosita o'z imkoniyatlari orqali yoki muayyan jamoa, gurux vositasida ijtimoiy hayotga ko'rsatuvchi ta'siri ortib bormoqda.

Ma'lumki, ayni davrdagi demokratiya tartibotlari G'arb dunyosida tug'ilgan hodisadir. Hozirgi paytda dunyo xalqlari hayotiga singdirilayotgan demokratiya tamoyillari G'arbiy Yevropa xalqlariga mos bo'lgan turmush tarzining adolat tamoyillari bilan yo'g'irilgan namunasidir.

Butun dunyoda yuz berayotgan globallashuv, ya'ni, umumiylashuv jarayonlarining mushtarak qismi sifatida namoyon bo'layotgan g'arbona demokratlashuv sharq xalqlari hayotiga muayyan qiyinchiliklar orqali tomir otmoqda. Bu yo'lda har bir davlat oziga xos murakkabliklar davrini o'tashiga, ba'zan esa kutilgan natijalarning mutlaqo teskari holatlariga ro'para bo'lib qolishiga ham to'g'ri kelmoqda. Agar demokratiyaning asosiy talablaridan bo'lgan inson haq-huquqlarini teng ta'minlash va uni adolatli himoyalash zarurati an'anaviy buddaviylik diniga sig'inuvchi mamlakatlarda, xususan, Yaponiya, Koreya, Malayziya, Tailand singari davlatlarda bir qadar silliq kechayotgan bo'lsa, islom qonunlari barqaror bo'lgan Sharq mamlakatlarida bu jarayon jiddiy

katakizmlar, siyosiy bo'htonlar, og'ir yo'qotishlar hisobiga amalga oshirilmoqda. Hatto g'arbona demokratiya tartibotlarini singdirishga bo'lgan ayrim urinishlar tamoman teskari oqibatlarni tug'dirib qo'yganligi ham yaqin tariximizdan ma'lumdir. Masalan, 70 - yillarda g'arbona demokratiya, sivilizatsiyalashgan turmush tarzini Eron davlati turmush tarziga singdirishga harakat qilgan podshoh Muhammad Rizo Pahlaviyning sa'y-harakatlari nechog'li chippakka chiqanligi, an'anaviy diniy yondashuv tarafdorlarining yalpi bosh ko'targanligi, oqibatda esa uning o'zi mamlakatdan jon saqlab qochganligi va bugungi kunda esa Eron davlati islomiy an'analar muhitida yashashga o'tanligi, G'arb demokratiyasi va turmush tarzining bu mamlakatda rad etilganligi barchaga ayondir. Xuddi shunday holat yoki o'xshash manzaralar Afg'oniston, Efiopiya, Somali singari davlatlarda ham ro'y berganligi bejiz emas. Hayot maromini mavjud an'analar, urf -odatlar, milliy turmush o'ziga xosliklarni bepisand inkor etish asosida o'zgartirish naqadar fojeali oqibatlarga olib kelganligini Tojikiston, Checheniston, Yugoslaviya xalqlari boshiga tushgan kulfatlar misolida ham ko'rish mumkin.

Ayni chog'da ta'kidlash zarurki, hayot rivoji qonuniyatlarining beto'xtov amal qilishi hamma yerda ham u o'zgarishlar muqarrarligini qayta-qayta tasdiqlamoqda. Eng muhimi mazkur o'zgarishlarni umumjahon globallashuv jarayonlarining uzviy jihati sifatida anglash darajalarining turli xilda ekanligi muammoning samarali echilishiga asosiy to'siq bo'lib qolmoqda.

G'arb xalqlari uchun har qanday muammoning yechimini manfaatlar hal etishi umumiy qonuniyat hisoblanadi. Manfaatlar silsilasida iqtisodiy manfaat ayniqsa ustuvor ahamiyatga ega. Ingliz mentalitetini yaxshi bilgan mashhur davlat arbobi U. Cherchell "Angliya taqdirini uning doimiy do'stlari emas, balki doimo o'zgarib turuvchi manfaatlar belgilab kelgan" degan edi.

G'arbdagi moddiy, real manfaatlar ustuvorligi qadriyatidan faqr qilib, Sharq xalqlari uchun bosh qadriyat ma'naviy omillar, ayniqsa inson sha'ni, obro'-e'tibori, nafsoniyati, oriyati, vijdoni hisoblanib kelgan. Ma'naviy talablar esa o'z-o'zidan qadriyatlar qatorini mutanosiblashtirishni, birining ketidan mantiqiy ravishda ikkinchisini qo'yishni taqozo etgan. Xususan otaga ehtirom, ona e'zozi,

aka va uka hurmati, qavmu-qarindoshlar totuvligi, qo'ni – qo'shnilar ahilligi qadriyatlar sifatida muayyan ketma-ketlikda, qadrlanish darajasiga ko'ra ierarxik shaklda hayotdan o'rin olib kelgan. Qadriyatlar qatoridagi tartiblarning buzilishi jamiyat, so'ngroq esa, davlatning nurashiga olib kelgan. Ierarxiya sharq turmush tarzining maromini belgilab turuvchi muvozanat me'yori, eng asosiy tamal toshlaridan hisoblangan. Ierarxik tizim hamma jarayonlarning o'z oqimida kechishiga, po'rtanalar yuz bermasligiga kafolat vazifasini o'tab kelgan.

Sharq xalqlari turmush tarzi murakkabliklari to'g'risida o'lmas obidalar yozib qoldirgan qadimgi Xitoy mutafakkiri Konfutsiy dunyo barqarorligi faqat moddiy boyliklarning teng taqsimlanishigagina emas, balki umum tomonidan e'tirof etilgan tengsizliklarga tayanishga bevosita bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Atoqli mutafakkir odamlarni tinchitish uchun ularni tenglashtirish emas, balki, adolatli tabaqalashuviga erishish zarur deb o'rgatadi. Dunyo tinchligi – uning fikr qarashlariga ko'ra, "ota va bola", "er va xotin", "xokim va fuqaro", "aka va uka", "ustoz va shogird", o'rtasidagi tengsizlik maromining nechog'li saqlanishiga bog'liqdir. Mabodo ana shu besh tengsizlikning biror bir bo'g'iniga darz ketgudek bo'lsa, dastlab oiladan, keyin jamoa, jamiyat va nihoyat davlatdan baraka, fayz ko'tariladi va umumiy inqirozlarga yo'l ochiladi.

Tengsizlik tartibotining mazkur formulasi nafaqat uzoq Sharq, balki Markaziy Osiyo mamlakatlarida asrlar mobaynida amal qlinib kelingan. Buning tamomila aksi sifatida G'arb dunyosi har bir fuqaroning hech bir istisnolarga bog'liq bo'lmagan real tengligiga erishish uchun necha asrlab kurash olib bordi va bunga erishdi ham.

Biz bugun yalpi tenglik uchun kurash harakati muayyan ma'naviy qadriyatlarning narxi pasayishi, insoniylik, ezgulik singari tamoyillar ahamiyatining susayishiga olib kelganligidan qat'iy nazar, G'arb mamlakatlari uchun umumiy yuksak taraqqiyotga erishish imkoniyatlarini tug'dirganligini e'tirof etmay ilojimiz yo'q. Ayni chog'da yalpi tenglikka erishish jarayonlari oqibatida odamlararo munosabatlardagi iliqlik, ma'naviy qadriyatlarning narxi pasayishi, samimiyat, ezgulik, hamdardlik singari tamoyillarning hayotdagi ahamiyati

susayishiga olib kelganligini ham unutmasligimiz zarurdir. Bugungi G'arb dunyosi uchun individualizm, egoizm, konformizm, marginallik, shafqatsizlik xususiyatlarining shaxs sifatlariga aylanib qolayotganligini ommaviy axborot vositalari tashvishlanib qayd etmoqda. Shu boisdan ham O'zbekistonda xalqimiz ma'naviy yahlitligini saqlab qolish, o'zlikdan chekinmaslik, sof insoniy fazilatlarga tayanib ish tutish asosida istiqbolga intilish siyosati izchil yurgizilmoqda.

Binobarin, demokratiyaning asl mohiyati jamiyatda adolat tamoyilini qaror toptirishdan iborat ekanligini e'tiborga olsak, mamlakatimizda mazkur jihat quyidagi omillarda yaqqol ko'rinadi. Birinchidan, fuqarolarning tinchligi va millatlararo totuvlik tamoyili umumjamiyat miqyosida yalpi qaror topganligida, ikkinchidan, fuqarolarning turli ijtimoiy-siyosiy va madaniy – ma'rifiy jamiyatlarga birlashish erkinligi kafolatlanganligi va real amal qilayotganligida, uchinchidan, ma'naviyat, ma'rifat va odob-axloq tamoyillari orqali insonning insonligini o'ziga anglatishdan iborat umumjamiyat harakatining izchil amalga oshirilayotganligida, to'rtinchidan, bozor iqtisodiyotining shafqatsiz muhitiga insonni kuchli ijtimoiy himoya qilish orqali bahamjihat kirib borish siyosatiga qattiq amal qilinayotganligida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Mazkur omillarning umumiy va pirovard majmui esa mamlakatimizda adolat tamoyilining o'ziga xos va o'ziga mos tantanasini ifoda etadi.

Shunday qilib, Sharq xalqlari uchun G'arbga xos bo'lgan hammani bir xil qarichda o'lchovchi total ya'ni, yalpi tenglik formulasi emas, balki insoniylik talablari to'laroq bajariluvchi ierarxik tenglik (pastdan yuqoriga, bosqichma - bosqich rioya qilinuvchi munosabatlar tizimi) formulasi ko'proq mos keladi.

Ierarxik tenglik formulasi konfutsiy ta'kidlagan insoniy qanoat insof, diyonat, kattlarga hurmat, kichikka izzatdan iborat, asoslangan cheklanishlarni etiborga olgan holda yashashni taqozo etadi. Mazkur talab jamiyatni faqat qonunlar kuchi orqaligina emas, balki ma'naviyat undovi vositasida ham boshqarishga yo'l ochadi.

O'zbeklar tabiatdan jamoaviy xalq bo'lganligidan o'zligini hamisha atrofdagilar munosabatiga ko'ra anglashga moyildir. O'zlikni jamoada anglash tamoyili esa kishilarning oilada, mahalla kuyda, ishxonada, jamoat ishlarida qanday baholanishi bilan o'lchanadi. Masalan, to'ylarimiz yoxud ma'rakalarimiz obro'sini atrofdagilarning tadbirimizga qanday munosabatda bo'lishi, ya'ni kimlar qatnashishi, qancha odam kelishiga ko'ra baholashga o'rganganimiz. Bu jihat yuz yillar mobaynida turmush tarzimizda teran ildiz otib bo'lgan.

Ammo, butun dunyo va jamiyatimizda vaziyat tamoman o'zgacha manzara kasb etib ulgurdi. Biz bu holatlatni, ya'ni o'zgargan dunyoni ham to'la anglab yetmayotganligimizni ham tan olishimiz kerak. Birinchidan, dunyoning hayot maromi, umr sur'ati tezlashib jo'shqin mazmun kasb eta boshladi. Ikkinchidan, bozor talablari hamma narsaga sergaklik bilan yondashish, hisob-kitobni qat'iy olib borish zaruratini kun tartibiga chiqazdi. Uchinchidan, dunyo jarayonlari bilan doimiy hisoblashish atrof mamlakatlarda yuz berayotgan jamiki voqea-hodisalarga dahldorlik tuyg'usini kuchaytirish zaruratini muhim talablar darajasiga chiqazdi. To'rtinchidan, har bir siyosiy gurux, jamoa yoxud shaxs dunyo jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari behad o'sdi. Bunday sharoitda odamlarning tor biqiq muhitida yashash va faoliyat ko'rsatishlari, faqat o'z an'analari doirasida turmush kechirishlari mumkin bo'lmay qoldi.

Dunyo o'zgarishlarining muqarrar mantig'i jamiyat va fuqarolarga ham o'z turmush tarzlarini mutanosib o'zgartirishlarini qat'iy talab qila boshladi.

Istiqlolimizning dastlabki pallasidayoq, ana shu katta ijtimoiy ehtiyojni o'z vaqtida donishmandlik bilan anglagan Yurtboshimiz jamiyat hayotini isloh etish, an'ana va marosimlarimizni dunyo o'zgarishlari mantig'iga binoan muvofiqlashtirish tashabbusi bilan chiqdi. To'y va ma'rakalarni tartibga tushirish, ortqcha isrofgarchilik va dabdababozlik bilan o'tkazmaslik to'g'risidagi Prezident farmonlari e'lon qilindi. Joylarda bu farmon mamnuniyat bilan qabul qilindi. Ko'pgina hududlarda farmonning kuchi va vositasida to'y va ma'rakalar ixchamlashtirilib, xalqni an'analarning og'ir yukidan halos etish jarayonlari qizg'in tus oldi. Ammo mazkur farmonlarni kutilgan darajada hamma joyda ham bir xil

samarali tadbqiq etilmaganligi bois, ma'lum vaqt o'tgach, o'rganilgan odatlar odamlarni yana o'z iskanjasiga ola boshladi. "Kim o'zarga" xalqqa to'y berishdan iborat bachkana illatlar qayta jonlanib, turmush tashvishlari yukini yanada og'irlashtira boshladi. Bunga bois, o'zbek mentaliteti omilidan joylarda yetarli foydalanilmay kelingailigida edi. Odamlardagi o'rganilgan steriotiplar, odatlarga moyillik xususiyati bilan zamona talablari o'rtasida ziddiyat yuzaga keldi. Odamlar "bunday odatlar bizda bunda-yu, boshqalarda qanday ekan" deb atrofga alanglay boshladilar. Boshdalar bilan qiyoslash shuni ko'rsatdi-ki, bunday dabdababozlik, keraksiz ayu-hannoslarni O'zbekistondan boshqa hech qaysi yurtda qilinmas ekan. Jamiyatda urf-odatlarga tanqidiy rux yuzaga keldi. Ammo, faqat kayfiyat bilan hali hech narsani hal etib bo'lmaydi. O'zbeklarga xos "qani endi kim nima qilar ekan" degan va "endi kimning ortidan ergashib, kimdan ibrat olamiz" degan mulohazalar, o'y - istiholalar ham tarkib topdi.

Shu o'rinda O'zbekistondagi jamoaviylik tabiataning muayyan cheklanganlik jihatlari esga tushadi. Ya'ni xalqimiz vakillari biror bir tadbir (to'y, ma'raka) qilishdan avval qavm-qarindoshlar, mahalla, ishxona, tanish-bilishlar tajribasini mushohada qilib ko'radi, bu haqida o'ylaydi, fikr almashadi va hatto maslahat ham qilib oladilar. Va bu jarayon shu yerda to'xtaydi. To'xtamga, qat'iy bir fikrga kelinmaydi. "Ko'rpaga qarab oyoq uzatish" taomiliga hamisha ham amal qilinavermaydi. Qat'iy fikrga kelish uchun esa o'zbeklarga obro'-e'tiborli odamlar, ya'ni to'y ma'raka qiluvchi uchun muayyan martabali shaxs, yoki rahbarga taqlid qilish, tayyor andozaga tayanish taqozo etiladi. O'zbeklar tabiatan jamoaviy bo'lishiga qaramay shaxslar, liderlar ibratiga favqulodda ehtiyojmand xalqdir.

Shunday qilib ta'kidlash lozimki, o'zbeklar jamoaga qarab fikr-yurutuvchi o'ylovchi, tahlil etuvchi ammo faqat shaxslarga, liderlarga qarab ish qiluvchi, qaror va xulosalarga keluvchi xalqdir. Mazkur formula xalqimizni demokratiya tartibotlariga o'rgatishda ham juda asqotadi. Zero, demokratiya nafaqat shaxs haq-huquqlarini himoyalash, balki, boshqalarga halal bermay yashash, jamoaga doimiy ravishda ijtimoiy naf keltirib borish omili hamdir.

II bob. Ijtimoiy ish sohasida inkyuziv ta'limni rivojlanishi.

2.1. Inklyuziv ta'limni tashkil etishda milliy mentalitet xususiyatlarini hisobga olish.

Inklyuziv ta'lim – bu (nogironligi yoki boshqa sabablar tufayli) maxsus ta'limga muhtoj bolalar va yoshlar uchun moslashuvchan va individuallashtirilgan yordam tizimidir. U umumiy ta'lim tuzilishining muhim qismini tashkil qiladi va hamma uchun birdek ta'lim beruvchi oddiy ta'lim muassasalarida olib boriladi.

An'anaviy termin "maxsus ta'lim" nogiron o'quvchilar ta'limini ta'lim muassasalaridan tashqarida yoki u bilan bog'liq holda olib boriluvchi tizimni anglatadi.

Inklyuziv ta'lim asosan oddiy guruxlarda va o'quvchilarga yaqin bo'lgan oddiy ta'lim muassasalarida olib boriladi. Oddiy gurux muhitidan ajratish, oddiy guruxlarda ta'lim olishda qo'shimcha yordam va xizmatlar olib borilayotgan ta'lim, ijtimoiy va ichki ehtiyojlarni o'quvchilar talabiga javob bermayotganligi to'g'risida dalillar mavjud bo'lsa, qisman yoki mustasno xollarda, to'la amalga oshirilishi mumkin.

Inklyuziv ta'lim bolalarning turli ehtiyojlari va qobiliyatlari, jumladan ularni o'rganish usullari va bosqichlaridagi farqlarni aniqlaydi va ularning ehtiyojlarini qondiradi. Bu individuallashtirilgan o'qitish metodi va muvofiqlashtirilgan o'quv reja hamda eshitish asboblari va materiallar asosida amalga oshiriladi. Inklyuziv ta'lim jamoaviy ish bo'lib, javobgarlik butun ta'lim muassasasi jamoasi bo'yniga yuklatiladi. Bunda maginater yordam ko'rsatish borasidagi xizmatlarni bajarish orqali asosiy rolni o'ynaydi. Bu kabi yordamlar turli xil shakllarda bo'ladi. Ular quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin.

Ko'chib yuruvchi – qatnovchi, maxsus tayyorlangan Resurs o'qituvchi, vazifasi:

- maginatorga maslahat va yordam berish;
- maxsus o'qitish qo'llanmalari va materiallar bilan ta'minlash;

- Ota-onalar, ko'ngillilar yoki katta o'quvchilar tomonidan mavjud bo'lgan yordamlarni ta'minlash;

- O'quv reja, dars jadvali va baholash yo'l-yo'riqlariga moslashish va o'zgarishlarga ko'nikish masalalarini shakllantirish;

- O'qituvchilar malakalari va bilimlarini oshirish uchun sharoit yaratish;

- Faol va qo'llab-quvvatlovchi rahbar va shu kabilarni o'z ichiga olgan ijobiy ta'lim muassasasi muhiti bo'lishi shart;

- Ma'muriyatga bolalarni aniqlash va baholashda yordam ko'rsatish;

- Ijtimoiy, psixologik va sog'liqni saqlash xizmatlarini muvofiqlashtirish;

- Ko'rsatmalar va yo'l-yo'riqlar berish;

Inklyuziv ta'limni boshlash.

A. Izlab topish va yordam berish:

- Inklyuziv ta'limni boshlash uchun dastavval maxsus yordamga muhtoj bolalarni izlab topish.

- Tibbiy va ijtimoiy yordamlar ko'rsatuvchi xodimlar va boshqa shu haqida qayqurgan shaxslar yordamida inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni izlab topish.

- Maxsus yordamga muhtoj bolalarni izlab topilgandan so'ng, ba'zi tibbiyot xodimlari va maxsus tayyorlangan maxsus ta'lim o'qituvchilar jamoasi ularga keyingi yordamlarni ham berib borishlari shart. Ularni ko'nglini cho'ktirmang!

- Baholash natijasi sifatida har bir bolaga belgilangan reja asosida yordam berilishi kerak!

- Ota-onalar har doim jalb etilishi kerak!

- Inklyuziv ta'limni boshlashdan oldin ta'lim muassasi va ota-onalarni ogohlantirish orqali unga kerak bo'lgan muhitni yarating. Salbiy munosabatlar va noto'g'ri tushunishlar yomon natijalarga olib kelishi mumkin.

B. Inklyuziv ta'limni olib borish:

- Boshlang'ich qadam har doim oddiy guruxlarda individual ehtiyojlarga mos ravishda ta'limni joriy etish bilan boshlanishi kerak.

- Oddiy guruxlarda tahsil oladigan maxsus ta'limga muhtoj bolalar o'qituvchi gurux taxtasiga yaqinroq va zarur bo'lsa, yorug'lik ko'p tushadigan

joyga o'tirgizilishi kerak. Maxsus ta'limga muhtoj bolalar bilan iloji boricha oddiy muomalada bo'ling!

- Maxsus ta'lim bo'limi uchun Resurs xona sifatida maxsus mos keluvchi xona yoki joy tanlanishi kerak. Oddiy gurux xonasidan tashqari qo'shimcha yo'l-yo'riqlar berib borsa bo'ladigan xona bo'lishi kerak. Murakkab ehtiyojlari bo'lgan, o'rta yoki og'ir qiyinchiliklari bor bo'lgan bolalarga qo'shimcha, vaqtinchalik yordamlar ko'rsatish talab etiladi.

- 10-15ta o'quvchidan ko'p bo'lgan maxsus ta'lim bo'limini tashkil etmang. Aks holda bu bolalarga yordamdan ko'ra ko'proq zarar yetkazasiz.

- Bo'limni bolalar bor bo'lgan yoki ular osonlikcha borib-keladigan ta'lim muassasasida boshlang. 10 ta bola qatnagandan ko'ra bitta o'qituvchi qatnagani yaxshi.

- Bo'lim uchun tanlangan joy bolalardagi muammolarga moslashtirilgan tarzda shakllantirilishi kerak. Ko'rishi shikastlangan bolalar bo'limi yaxshi yoritilgan va u yerda tovush yaxshi yoritilgan bo'lishi kerak. Eshitishi shikastlangan bolalar bo'limi tovushni yaxshi qaytaradigan mahalliy materiallardan, noto'qima matolardan yoki shishadan tayyorlanishi kerak va o'qituvchining imo-ishoralari va lab xarakatlarini ko'rish uchun yaxshi yoritilgan bo'lishi kerak. U ta'lim muassasining eng shovqinsiz joyida bo'lishi kerak. O'zlashtirishda qiyinchiliklari bor bo'lgan bolalar bo'limi shovqin darajasi past bo'lgan va ularni fikrini jamlashga xalaqit bermaydigan joyda bo'lishi kerak.

- Yangi ta'lim muassasasi binosini qurishda nogiron bolalarning ehtiyojlari inobatga olinishi kerak. Mavjud ta'lim muassasalarida xarakatlanishda qiynaluvchi bolalar uchun zarur o'zgartirishlar qilinishi kerak. Masalan, nogironlar aravachasi yuradigan yo'lakchalar, xojatxona jihozlari va boshqalar.

- Inklyuziv ta'limni iloji boricha yosh, ta'lim muassasasigacha yoshda bo'lgan bolalarda boshlash maqsadga muvofiqdir. Ishonchni uyg'otish uchun jamoa qiyinchiliklari yengil va o'rta bo'lgan bolalarda boshlangani ma'qul. Ular guruxdagi bolalar bilan bir yoshda bo'lishi kerak. Har bir oddiy guruxda nogiron bolalar ikkitadan ko'p bo'lmasligi kerak.

- Mavjud resurslarni (qo'llanmalarni) tarqatilyotganda ta'lim muassasasi rahbari va jamoa yordamga eng ko'p muhtoj bolalarga ko'proq ahamiyat berishlari kerak.

- Hammaga maxsus bo'limlarni tashkil etish orqali inklyuziv ta'limni olib borishdan maqsad nogiron bolalarni ta'lim muassasalaridan ajratib, ulardan qutilish emas, balki ularga oddiy guruxlarda yordam berish ekanligini tushuntiring.

D. O'qituvchilar:

- Resurs jamoaning maqsadi oddiy ta'lim muassasi tizimida qisqa muddatli va mahalliy kurslarni tashkil qilishdir. Bu kurslar uchun tuman, viloyatdagi barcha o'qituvchilarni jalb etishga harakat qiling. Bu inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun juda muhimdir. Uni ta'lim muassasasigacha ta'lim o'qituvchilari va 1-3 guruxlardan boshlang. Maqsad barcha o'qituvchilarga inklyuziv ta'lim to'g'risida boshlang'ich bilimlarni berishdir. Bu ularga oddiy guruxlarda yengil ta'limga muhtoj bolalarga yordam berishlarida qo'l keladi. Bu kabi bolalar maxsus ta'limga muhtoj deb topilgan bolalarning 70-80% ni tashkil qiladi.

- Darslarni olib boruvchi o'qituvchilar maxsus bilimlar, brayl va boshqalarni berish bilan cheklanmasdan, xulq-atvor, tekshiruv, baholash, gurux ishlari, dasturga moslashish, individual o'qitish metodlari, guruxni boshqarish va arzon o'qitish qo'llanmalari, ulardan foydalanishga ham diqqatni qaratishlari kerak. "Gurux xonalaridagi maxsus ehtiyojlar" YUNESCO resurs qo'llanmasi ushbu maqsadda ishlatilishi mumkin.

- Maxsus ta'limga muhtoj bolalar va ularning o'qituvchilariga yordam beruvchi ta'lim muassasalararo qatnab yuruvchi, ko'p tomonlama nogironlik bo'yicha resurs o'qituvchi tizimini rivojlantirish kerak. Bu vazifa uchun eng yaxshi o'qituvchilaringizni tanlang.

- Bir xil yoshdagilar, katta yoshdagi o'quvchilar, ota-onalar, qarindosh urug'lar, ishsiz ko'ngillilar va boshqalarni o'qituvchilarga maxsus yordamga muhtoj bolalarga yordam berishda jalb qiling va ruxlantiring.

Boshqarish va maslahat berish xizmatlari:

- Viloyatlar ta'lim muassasalari maxsus yordamga muhtoj yoshlar va bolalarni boshqarish, rivojlantirish va uyushtirishda inklyuziv maxsus ta'lim mutaxassislariga muhtojdir.

- Viloyatlarda maslahatlar berish, ruxlantirish va ta'lim muassasalarida yangiliklar yaratishga qodir inklyuziv maxsus ta'lim "Maslahatchilariga" talablar mavjud.

Asosiy ko'rsatmalar quyidagilardan iborat:

1. Ko'rish qobiliyati past bo'lgan bolalarni gurux yozuv taxtasiga yaqinroq joyga, ikkinchi qatorga o'tirg'izing.

2. Har ehtimolga qarshi gurux xonasidagi barcha eshik va tokchalarni to'liq berk holda saqlang. Agar gurux xonasining jihozlari o'zgartirilgan bo'lsa, bu haqida ko'zi ojiz bolalarga ma'lumot bering.

3. Ko'zi ojiz odam bilan gaplashishni har doim o'zingizni tanishtirish bilan boshlang. Tovushni har doim ham ajratish oson bo'lavermaydi. Bu, ayniqsa, odamlar ko'p va asablar tarang holatlarda juda muhimdir.

4. "Qara", "eshit" degan so'zlarni ishlatishdan tortinmang. Bu so'zlar bizning lug'at boyligimizda bo'lgani kabi ko'zi ojiz bolaning ham lug'at boyligida mavjuddir.

5. Bambukdan qilingan tayoqcha juda foydali bo'lishi mumkin. Uning uzunligi odamning yelkasidan beligacha bo'lishi kerak. Juda kalta tayoqcha odamni egilishga majbur qiladi va bu uning holatiga to'g'ri kelmaydi.

6. O'qitayotganda ko'p tomonlama sezgiga asoslangan yondoshuvdan foydalaning. Bolalar turli usullar yordamida o'rganishadi: ular ko'rish, ushlab ko'rish va eshitish orqali o'rganishadi. Ko'rish qobiliyati shikastlangan bolalar shu kabi uslub va yordamlar asosida ko'rishdagi kamchiliklarini qoplaydilar.

7. Gurux taxtasiga yozayotgan narsangizni ko'zi ojiz bola yozib borishi uchun iloji boricha balandroq ovozda o'qib boring. Gurux taxtasidagi ko'rsatmalarni og'zaki tushuntirib boring.

8. Yangi mavzuni guruxga tanishtirayotganingizda og'zaki tildan iloji boricha ko'proq foydalaning. Bola siz foydalanayotgan har bir ko'rgazmaga, kartaga, jadvallarga yaqin joyda o'tirishi kerak.

9. Bolaga turli tushunchalarni o'zlashtirishi uchun o'qitish qo'llanmalari va uch o'lchamli ta'lim berilishi kerak. Bolaga o'qitish qo'llanmalarini ushlab ko'rish va ulardan foydalanishga imkon bering.

10. Braylda yozma mashg'ulotlarni tugatishi uchun ko'zi ojiz bolalarga qo'shimcha 50% ko'p vaqt bering.

11. Qo'shimcha ko'rsatish uchun resurs (ta'lim muassasalararo qatnab yuruvchi) o'qituvchidan yordamlar so'rang. Masalan, harakatlanish uchun bambuk tayoqcha, yozish va o'qish uchun Brayl va matematik amallarni bajarish uchun shart.

12. Resurs (ta'lim muassasalararo qatnab yuruvchi) o'qituvchidan bolaga Brayl yoki katta xarflar bilan yozilgan qo'shimcha majmualar so'rang. Agar mavjud bo'lsa, magnitofondan foydalaning.

13. Bolaning guruxdoshidan unga kerak bo'lsa yordam berishini so'rang. O'zingizni olib qochmaslikka harakat qiling.

14. Qoniqish hosil qilganlik va maqto'v tariqasida bolaga og'zaki maqto'v bering yoki boshini silab qo'ying. Bu bolaning ijobiy faoliyatlarini oshiradi. Tengdoshlariga unga tanqid va yordam berishlarini ayting. Ko'zi ojiz bolalarni qabul qilish orqali guruxga ijobiy misol bo'lasiz.

Turli mamlakatlarda nogiron bolalar ta'minoti va ular uchun strategiyalarni rivojlantirishda 4 ta bosqichga amal qiladi.

1. **Ajratish bosqichi.** Nogiron odamlarning hayoti asosan yakkalanib qolishlik bilan bog'liq. Ko'plab jamiyatlarda nogiron odamlarga qo'rquv va past nazar bilan qarab ulardan voz kechib kelinmoqda. Nogiron odamlar haddan tashqari og'ir kambag'allikdan qiynalishadi. Ularning qalbida shayton o'rnashib olgan yoki ularni yovuzlik va jodugarlik timsoli deb qabul qilishganligi sababli ba'zi hollarda ataylab ularni o'ldirishadi. Madaniy qoloqlik bu bosqichida nogiron

odamlarga ahamiyat bermaslik, ularni qabul qilmaslik, azoblash va ulardan foydalanish oqibatida ularni jamiyatning chiqindilari deyish mumkin.

2. Ular bilan shug'ullanish bosqichi. Nogiron odamlarga diniy va insonparvarlik nuqtai nazaridan yordam beriladi va ular haqida qayg'uriladi. Ko'p hollarda bunday munosabatlar noodatiy uyushmalar tomonidan amalga oshiriladi. Nogiron odamlar asosan yordam berish obyekti. Ular o'zlariga ko'rsatilayotgan yordamlarning sifatini baholay olishmaydi. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda, bu kabi ishlar ta'lim tizimida nogiron bolalar uchun "Maxsus ta'limni" paydo bo'lishi bilan amalga oshiriladi. Jamoaviy modelning umumiy qismi sifatida maxsus ta'lim ko'ngilli, asosan missionerlar (Xristian dini targ'ib qiluvchilar), uyushmalar tomonidan amalga oshiriladi. Ular hukumat nomi bilan ish ko'rishadi, lekin ular faoliyatiga hukumat aralashmaydi. Ular o'z-o'zini boshqaruvchi bir qancha maxsus muassasalarni tashkil etishgan. Bunday muassasalarga jalb qilingan bolalar yaxshi ta'lim-tarbiya olishadi, lekin ota-onalari va qarindosh urug'lari bilan kam aloqada bo'lishadi. Shu sababli ularning ko'pchiligi ikkinchi nogironlikni orttirib olishadi. Bu ularning segregatsiya (ajralgan holda bo'lish) darajasini yanada yomonlashtiradi. Bolalarning ba'zilari butun umrlarini ushbu maktablarda o'tkazib yuborishadi. Bu borada hukumatning aralashuvi juda kam. Nogiron odamlarga jamiyat kam ahamiyat beradi. Bunday holatlarga ayrim bir baxtsiz oilalarning "shaxsiy muammolari" va shu oilalarning o'zlari qo'ldan kelgancha hal qilishi kerak bo'lgan tashvishlari sifatida qarashadi.

3.Reabilitatsiya bosiqichi. Bu bosqichda insonlarning nogironligi tufayli bajara olmaydigan faoliyatlarni bajarish qobiliyatlari va ularning imkoniyatlari darajasini kengaytirish haqida fikr yuritiladi. Shu sababli, bu bosqichda nogiron odamlar nafaqat ta'lim-tarbiya, balki ularning ishlab chiqarish faoliyatlarini oshiruvchi treninglarni ham olib borishadi. Ular "obyekt" emas, balki "subyekt" vazifasini o'taydilar. Natijada, ularning nima qila olmasligi emas, balki ular nimalar qilishga qodir ekanligi diqqat markazda turadi. Lekin bunday reabilitatsiya uyushmalar doirasida va asosan beg'araz yordamlar asosida amalga oshiriladi. Bu bilan bir vaqtda majburiy ta'limni joriy etish orqali oddiy maktablarda maxsus

sinflar ochilmoqda. Bunday fikr hamma holatlarda ham nogironlarga bo'lgan achinishdan kelib chiqavermaydi. Balki bunday bolalarning sinfda mavjudligi unga asosiy sababdir. Bu bosqichda saralash quroli sifatida aqliy testlar juda muhim rol o'ynaydi. Maktablarda esa asosan bolalarning o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun belgilangan qat'iy imtihonlar tizimiga asoslangan holda "qayta tanlanadi". "Bu kabi ajratishlar, tez-tez uchrab turadi va bu ta'lim muassasalarida ta'lim olishni xohlagan bolalarning uchdan bir qismini yoki yarmini ushbu joydan chiqarib yuborishga xizmat qiladi. Bunday chiqarib tashlashlarga faoliyatning ham bir javxasida chidab bo'lmaydi." (YUNESCO 1991y).

4. **Integrasiya (aralashuv, qo'shiluv) bosqichi.** Jamiyat rivojining nogiron odamlarga butunlay moslashayotganligi ushbu yangi paydo bo'lgan bosqichning dalilidir. Nogironlik shaxsni o'rab turgan atrof muhitga bog'liq bo'lmaydi. Buning o'rniga u shaxs va uni o'rab turgan atrof muhit o'rtasidagi aloqaning natijasi sifatida quriladi. 1981 Xalqaro Nogironlar yilining shiori, "to'liq qatnashish va tenglik", yangi "Jamiyat barchaga" tushunchasiga asos bo'ladi. Bunda jamiyat o'zining ham bir a'zosiga moslashishga harakat qiladi. Bu shuni bildiradiki, biz barcha kuchimizni odamlarni jamiyatga emas, balki jamiyatni odamlarga moslashtirishga sarflashimiz kerak, nogiron odamlarni reabilitatsiya qilish "to'liq qatnashish va tenglik", maqsadiga erishish uchun yetarli emas. Jamiyatning boshqa a'zolariga mavjud imkoniyatlarni nogironlardan tortib olish ham ularni nogiron qilishdir. "Rivojlanish asosan o'z hayotlarini boshqarishning uddasidan chiqa oladigan odamlar haqidadir. Beg'araz yordam esa boshqalar yordamiga muhtoj bo'lib qolgan odamlar haqidadir" (Kolerij, 1993).

Inklyuziv ta'limni tan olinishi va Ta'lim Barchaga Xalqaro deklaratsiyani va Maxsus Muhtojlik Ta'limi Tamoyillari, Siyosati va Amaliyoti haqidagi Salamanka bayonotining hayotga tadbiiq etilishi yuqorida tilga olingan bilimlarga qarama-qarshiligidir.

2.1. Inklyuziv ta'limni rivojlantirishda etnik hududiy xususiyatlarni hisobga olish.

Jahon statistika ma'lumotlariga ko'ra dunyo aholisining qariyb 11 foizini nogironlikka chalingan odamlar tashkil qiladi.

Inklyuziv ta'lim individual yondashuvga asoslangan bo'lib, barcha ta'lim oluvchilarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turli ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlarini beradi. Ta'limdagi ushbu yondashuvda o'z jismoniy va aqliy xususiyatlari bilan farqlanadigan bolalar umumiy ta'lim tizimiga jalb qilingan bo'lib, o'z tengdoshlari bilan umumta'lim maktabida alohida ta'lim talablari hisobga olingan holda tahsil oladilar.

Inklyuziv ta'limni umumta'limning tarkibiy qismi sifatida va shuningdek, imkoniyatlari cheklangan bolalarni umumiy ta'limga integratsiya qilish maqsadlaridan biri sifatida o'rganish mumkin. G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika mamlakatlarida inklyuziv ta'lim tizimi kiritilganligiga 25 yildan oshgan. O'zbekistonda esa bugungi kunda inklyuziv ta'lim boshlang'ich bosqichda.

Butun dunyoda imkoniyatlari cheklangan bolalarni o'z tengdoshlari bilan o'qitish keng tarqalayotganini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi, asosiy xalqaro deklaratsiyalarni qabul qilgan davlat sifatida, imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim muhitiga integratsiya qilish bo'yicha ishtirok etmoqda. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi imkoniyati cheklangan insonlarga o'z salohiyatini amalga oshirishda teng huquqlar beradi, ta'lim olish huquqlari esa Konstitutsiya bilan kafolatlangan.

Shikastlanish, nogironlik, majruxlik:

- "Shikastlanish fiziologik, psixologik yoki anatomik tuzulish va faoliyat jihatdan normal bo'lmaslik yoki kamchiliklarga ega bo'lish.

- Nogironlik (shikastlanish natijasida) inson uchun bajarish normal bo'lgan yoki belgilangan faoliyatni bajarish qobiliyatidan mahrum bo'lishdir.

- Majruxlik shikastlanish yoki nogironlik natijasida shaxs uchun (yoshi, jinsi va ijtimoiy va madaniy omillarga asoslangan holda) ma'lum bir faoliyatni to'liq bajarish imkoniyatidan mahrum bo'lish".

Shunday qilib majruxlik shaxs va atrof muhit o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy sabablari natijasida vujudga keluvchi nogironlikdir. Bu nogiron va sog'lom odamlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarga salbiy munosabatda bo'lish natijasidir. Agar biz nogironlarning jamiyatning turli jabhalariga kirishlarini taqiqlasak, masalan, maktabga borish, biz ularni majrux qilib qo'ygan bo'lamiz. Majrux odamlarning paydo bo'lishiga sababchi bu biz, sog'lom odamlardir!

Bolalarda yengil yoki og'ir nogironlik bo'lishi mumkin, lekin ularning majrux, bo'lib o'sishlariga biz, ularning oilasi, qo'ni-qo'shnilari, o'qituvchilari va boshqalarning ularga bo'lgan munosabatlarimiz sababchidir. Agar biz ularga kerak bo'lgan yordamni berishda muvaffaqiyatsizlikka uchrasak yoki agar biz ularni o'zimiz bilan teng ko'rmasak, ular majrux bo'lib voyaga yetishadi va jamiyatning yaxshi integrasiya qilingan mahsuldor a'zosi sifatida hayot kechira olmaydigan muammoga aylanishadi. Biz nogiron odamlarni teng huquqli fuqarolar sifatida qabul qilishimiz kerak. Biz ularga yoshligidan imkoniyatlarini kengaytirish va uni yaxshilash uchun kerakli muhitlarni yaratib berishimiz kerak. Kerakli xizmatlarni ko'rsatish va muhim siyosiy masalalarda ularning huquqlarini esdan chiqarmasligimiz kerak.

Yana bir muhim narsa bu, nogironlik masalalarini keng ma'noda qabul qilishdir, masalan nogironlikka yetaklovchi sifatsiz ovqatlanish, qoniqarsiz holatlarga sabab bo'luvchi dahshatli kambag'allik zanjiridan ularni ozod etishdir. Bunday zanjir kelajakda hech qanday ish va'da qila olmaydigan sifatsiz ta'lim na tayyorlovlarga olib boradi va buning natijasida kambag'allik yana davom etadi. Biz bunday zanjirni uzib tashlamagunimizcha avlodlar osha davom etaveradi. Ta'lim olishga erkinlik yaratish mavjud holatni yengillashtirish va natijada dahshatli zanjirni uzib tashlashning kalitidir.

Normalizatsiya, integrasiya, imkoniyatlarning tengligi va umumiylik. Ko'p hollarda normalizatsiya iborasi noto'g'ri talqin qilinadi. Bu nogiron odamni normal

holga keltirish degani emas. Aksincha, ular qanday bo'lsa, shunday qabul qilinish huquqiga ega bo'lishlari kerak. Ularga jamiyatda teng huquqli insonlar sifatida yashash imkoni berilishi kerak. Normallashtiriladigan narsa bu hayot kechirish tarzidir. "Normal holatlar" deb biz - ma'lum bir mamlakatda yashovchi barcha odamlarga taalluqli mavjud hayot tarzini tushunamiz. Normallashtirishning maqsadi, nogiron fuqarolarga teng huquq va imkoniyatlar tengligini berishdir. Masalan, maktabga sog'lom bolalarning 86% borsa, nogiron bolalarning 1,2% emas, ularning ham 86% borishi kerak. Ushbu yangi tizimda nogironlarga jamiyatning "ikkinchi darajali shaxslari" sifatida muomala qilish o'z ma'nosini yo'qotadi. Nogiron bolalarni sinflarga ajratish, maxsus joylarga joylashtirish, ajratib ta'lim berish va ularning hayotlariga beparvo bo'lishga ehtiyoj qolmadi. Oldingi ajratib ta'lim berishlar shuni ko'rsatadiki, bunday tizim odatda yakkalash, ahamiyatsizlik va salbiy munosabatlarga olib kelgan. Bugungi olib borilayotgan harakatlar nogiron shaxslarni jamiyatning haqiqiy a'zolari sifatida faoliyat yuritishlariga qaratilgan. Bunday holatlarda an'anaviy tushunchalar yangi tushunchalardan tubdan farq qiladi. Bu kabi yangi intilishlarda integratsiya diqqat markazidagi asosiy narsa bo'lishi kerak. Teng huquqli maktab barpo eting – inklyuziv maktab – muhim maqsadlardan biriga aylanmoqda. Bu kabi maktablar barcha tabaqalardagi yoshlarni o'z bag'riga olib ularning barcha ehtiyojlariga javob beradi. U o'z bag'ridagi barcha o'quvchilarga moslashgan bo'ladi. Natijada, hech kim siqib chiqarib yuborilmaydigan va hamma bolalarga ochiq umumiylik muhiti vujudga keladi.

Integrasiyani keng tarqib qilish uchun segregatsiya (ajratish) bo'lishi kerak. Shundan so'ng, boshidan ham bir nogiron bolani unga mos bo'lgan joyga qo'shib qo'yish mumkin. Shunda integratsiya qayta tuzatish tushunchasiga aylanadi. Inklyuziv maktab barchani ajratmasdan o'z safiga qabul qiladi va ularga diferensiyalashgan ta'lim-tarbiya beradi. Integrasiya to'g'risida gapirishga xojat ham qolmaydi va vaqt o'tishi bilan "maxsus" ta'lim "inklyuziv ta'lim"ga aylanadi. Barchaga sifatli ta'lim berish va teng imkoniyatlar yaratish diqqat markazida bo'ladi. Rivojlanishning bu bosqichiga erishish uchun jamiyatdan nogiron

odamlarni chiqarib tashlashni to'xtatish juda muhimdir. Ularga inson huquqlari doirasida munosabatda bo'lish kerak. Nogironlik siyosati to'laligicha beg'araz yordam ko'rinishini olishi kerak va nogiron odamlarni faol jalb etish rejasini tuzish uchun "Jamiyat barcha uchun" tushunchasi asosida segregatsiyani tashkil qilish kerak. Maxsus ta'limga muhtojlarni ham bir insondan mehr olish, e'tiborda bo'lish, himoyalash, shaxsiylik, faoliyatlarni ruxlantirish va shu kabi ehtiyojlari mavjud. Nogiron odamlar bundan mustasno emas, lekin bulardan tashqari ularning maxsus, shaxsiy ehtiyojlari bor. Hatti-harakatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari kabi jihatlariga asoslangan holda nogironliklari oz bo'lsada o'xshash bo'lgan taqdirda ham ular bir-biridan farqlanadi. Masalan, ikkita nogironligi bir xil bo'lgan bolalarning biri ijobiy, ruxlantiruvchi muhitda yashashi mumkin, ikkinchisi esa salbiy, ko'ngilni qoldiruvchi muhitda yashashi mumkin. Ularning ikkalasi ham nogiron bo'lsada, bu ularga bir xil yordam ko'rsatilishi kerak degani emas. Ularning ehtiyojlari yakkama-yakka holda qondirilishi kerak. Buning muhimligi amaliyotda keng tan olingan. Har bir bola shaxs sifatida mukammaldir va har bir bola hayotga moslashish va rivojlanish uchun yordamga muhtojdir. Ba'zi bolalar boshqalaridan ko'ra ko'proq yordamga muhtojdir. Boshqalari esa hayotlarining ma'lum bir paytida yoki butun hayotlari davomida maxsus yordamga muhtojdirlar, masalan, maktabda ta'lim olayotgan chog'larida. Bu kabi maxsus, qo'shimcha yordam "Maxsus Ta'lim"ga borib taqaladi. Hozirgi paytgacha, "Maxsus Ta'lim" deganda faqat ko'zi ojizlar, qulog'i og'irlar yoki aqlan rivojlanishdan orqada qolganlar ta'limi tushunilar edi. Bunday cheklangan qarash oqibatida, kichik, boshqa ta'lim tizimlari bilan kam bog'liqda bo'lgan maktab tizimi tashkil etilgan edi. Umumiy maktab tizimi vakillarining "Bular bizning bolalarimiz emas. Ular Maxsus ta'limga qarashli" degan gaplarini juda ko'p eshitganmiz.

Shu kabi masalalar bugungi kunda nogiron guruxlarga asoslangan klassifikatsiyani o'zgartirish va maxsus ta'limga muhtoj bolalar tushunchasini o'zgartirishga asos bo'lmoqda. Bu keng qamrovli tushuncha o'z ichiga og'ir nogironliklardan yengil qiyinchiliklarga bo'lgan narsalarni o'z ichiga oladi. U an'anaviy nogiron guruxlardan tashqari, o'zlashtirishda ko'proq umumiy

muammolar, qaytarishlar va maktabni tashlab ketishlar, bilan muvaffaqiyatsizlikka uchragan bolalarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy va hissiy muammolari bor bo'lgan bolalar ham buning ichiga kirib ketadi.

Yangi yo'nalishlar butun jahondagi ehtiyoj va ta'minot o'rtasidagi bog'liqsizlik nogiron bolalarga ta'lim berish strategiyasini qo'llab-quvvatlashni ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, pullik maxsus maktablar va markazlar hamma holatda ham ajratishni tezlashtiradi va shu bilan birga, ko'plab nogiron bolalarning trening va ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondira olmaydi. Oddiy maktablar ko'proq ahamiyat kasb etishi kerak. Ular maqsadlari, o'qitish va dasturlarini qaytadan tuzishlari kerak va nogiron bolalarni o'z ichiga oluvchi, va turli xildagi o'quvchilar talabini qondiruvchi inklyuziv yondashuvni qabul qilishlari kerak (3-jadvalga qarang).

An'anaviy yondashuv	Inklyuziv yondashuv
Ta'lim ba'zilar uchun	Ta'lim barcha uchun
O'zgarmas	Moslashuvchan
Jamoaviy o'qitish	Individual o'qitish
Ajratilgan muhitda o'rganish	Integrasiya muhitida o'rganish
O'qitishga kuch berish	O'rganishga kuch berish
Predmetga asoslangan holda	Bolaga asoslangan holda
Diagnostik-istiqbolli	Ta'limiy
Imkoniyatlar ajratish orqali cheklangan	Imkoniyatlar barcha uchun bir xilda

3-jadval Turli ta'limiy amaliyot

"Kelib chiqishi jihatdan umumiy paralel bo'lgan hozirgi maktab tizimi va maxsus maktablar yo'naltirish va integratsiyadan rivojlanib borayotgan inklyuziv maktablarga aylanib bormoqda. Rivojlanib borayotgan tizim uchun inklyuziv maktablar qo'shimcha tanlanishi kerak bo'lgan imkoniyat emas, balki majburiydir" (Jangira, 1994).

Buning natijasida oddiy sinf xonasi nogiron bolalar ta'limi uchun birinchi imkoniyatga aylanadi. Og'ir va murakkab qiyinchiliklari bor bo'lgan bolalarga ba'zi hollarda boshqa turdagi, maxsus maktablar va markazlar yoki oddiy maktab ichida maxsus bo'lim kabi dasturlar qo'llanishi mumkin.

Sinf xonasi ehtiyojni qondira olmagunga qadar bu qo'shimcha imkoniyatdan foydalanish tavsiya etilmaydi.

Yuqorida tilga olingan strategiyaning sog'liqni saqlash xizmati bilan o'xshashlik tomonlari bor. Kasallarning ko'pchiligiga ularning uylarida yoki yaqin oradagi klinikalarda xizmat ko'rsatiladi. Ba'zilariga shifoxonadan joy beriladi. Ularning juda oz qismi maxsus tibbiy yordam bo'limida davolanadi. Odatda biz burnimiz oqsa shifokorga murojaat qilmaymiz. Shunga o'xshash, ko'pgina maxsus ta'limga muhtoj bolalarning ehtiyojlarini oddiy maktabning o'zida ham qondirsa bo'ladi. Ularning juda oz qismiga maxsus maktablarda mutaxassislar tomonidan zarur yordamlar ko'rsatiladi. Berilayotgan ta'lim, albatta bolaning haqiqiy ehtiyojlariga mos kelishi kerak. Shu yo'l orqali qimmatbaho va yetishmaydigan mutaxassis xizmatlari zarur holatlar uchun saqlab qo'yiladi.

Ushbu yangi yo'nalishlarga bog'liq holda, mahsus maktablar keng sur'atda resurs markazlariga aylana boshladi. Ular o'zlarining yuksak tajriba va bilimlarini qo'llay oladigan keng ko'lamdagi dasturlarda qatnasha boshlashdi. Ular o'zlarining faoliyatlarini oddiy maktablar, oilalar va jamiyat bilan bog'lagan holda olib borishadi.

Rejalashtirish. "Oldingi rejalashtirishlar ko'p hollarda o'lda-jo'lda bo'lgan ta'lim tizimini butun jamiyatga xizmat qilishi kerakligi muhim dastak ekanligini o'zida aks ettirmagan edi" (YUNESCO 1989).

Maxsus ta'limga muhtoj bolalarning yo'naltirilgan ta'limi va umumiy ta'limga ikkita turli xildagi masala deb qaramaslik kerak. Oldingi ta'lim umumiy ta'lim rejasining qismi va qolipi vazifasini o'tashi kerak. Hozirgacha biz ta'lim ta'minotini maxsus ta'limga muhtoj bolalarga yetkazib bera olganimiz yo'q, u holda biz "Ta'lim Barchaga" maqsadimizga yeta olamizmi?

Bu ta'lim amaliyoti va ta'lim xizmatlarini tashkillash va ularga fundamental, haqiqiy o'zgarishlar kiritishni talab etadi. Maxsus ta'lim ehtiyojlarini kiritilishini shunday o'zgarish desa bo'ladi. Bolada maxsus ta'limga ehtiyojlari bor deyish, ta'lim sohasidagi maqsadlariga yetishishi uchun bola aniq (qisqa va uzoq muddatli) pedagogik yordam va xizmatlarga muhtoj demakdir.

Maktablar turli toifadagi o'quvchilarga xizmat qilishi kerak. Bu maqsadga erishish uchun maxsus ta'limga muhtoj o'quvchilar uchun oddiy sinf xonalari va sinf o'qituvchisi haqiqiy ta'lim bazasiga va maktab rahbari ehtiyojlarni qondiruvchi shaxsga aylanish kerak. Javobgarlik sinf o'qituvchisidan olib, boshqa mutaxassislariga berib qo'yilmasligi kerak. Buning o'rniga, ular ikkalasi uyushgan holda o'zaro ish olib borishlari kerak (MES 1990). Bu kabi rivojlanishga butun maktab islohotlaridagi izlanishlar sifatida qaralishi kerak.

"Maxsus ta'limga muhtoj bolalar hozirgi paytda oddiy maktab tizimidan chiqarib turilibdi, chunki hozirgi tizim ularni qabul qila olmaydi, masalan, u ularning talablariga javob bera olmaydi. Haqiqiy rivojlanish yuz tutishi uchun bunday inkonsizlik tan olinishi kerak va unga o'zgartirishlar kiritilishi kerak. Shu sababdan integratsiyaga maktab islohoti sifatida qaralishi kerak. Uning maqsadi mavjud aniq dastur doirasida barchaga ta'lim beruvchi maktab tizimini yaratishdir" (Xegarti, 1990). Ta'lim xizmatlarini rejalashtirishda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nogiron Odamlar borasida Ish yurituvchi Jahon Dasturi qo'llanmasi doirasida ish yuritish tavsiya etiladi, 1983: "120 ta a'zo mamlakatlar nogiron odamlarga boshqalar bilan teng ta'lim olish imkoniyatlarini beruvchi huquqlarni tan oluvchi siyosiy qonunlar yuritishi kerak. Nogiron shaxsning ta'limi iloji boricha umumiy maktab tizimida olib borilishi kerak. Ta'lim-tarbiya organlari va majburiy ta'lim to'g'risidagi qonunlar javobgarlikni o'z bo'ynilariga olgan holda, turli darajadagi nogiron bolalarni, eng og'ir nogironlarini ham inobatga olgan holda majburiy ta'limga kiritishlari shart" (Birlashgan Millatlar Tashkiloti, 1983).

Bu takliflarga Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nogiron Odamlarga Teng Imkoniyatlar belgilovchi Standart qoidalariga to'ldirishlar kiritilgan.

Barcha bolalarning boshlanqich ta'limdagi ehtiyojlarini qondirish zaruriyati Ta'lim Barchaga Inklyuziv maktabi doirasida maxsus ta'limga muhtoj bolalar uchun oddiy maktab tizimida ta'lim olishning yangi imkoniyatlarini ochdi.

Ta'limni rejalashtiruvchilar umumiy qabul qilingan 10% ko'satkichni turli zarur muammolarni hal qilish va maxsus diqqat e'tiborga muhtoj bolalarga yordam berishga asos qilib olishlari mumkin.

Maxsus diqqat e'tibor deganda biz og'ir nogiron bolalarga xizmatlar ko'rsatish hamda erta aniqlash, to'g'ri yordam ko'rsatish va o'rta va yengil qiyinchiliklari bor bo'lgan bolalarga kerakli yordamlarni olib borishni tushunamiz.

Nogironlik darajasi o'ta og'ir bolalarning soni kam, va nogironlikning og'irlik darajasi praporsional ravishda kamayib boradi. Maxsus Ta'limga muhtoj bolalarning 75-80% ga oddiy maktabda kerakli o'zgartirishlar kiritish orqali va maxsus ehtiyojlar ta'limining boshlang'ich treninglaridan o'tgan oddiy maktab o'qituvchilari yordamida ham ko'mak berish mumkin. O'rtacha darajadagi nogiron bolalarga oddiy sinf xonalari yoki maxsus gurux yoki bo'limlarda chuqurlashtirilgan yordamlar ko'rsatish orqali yordam berish mumkin. Ular ko'proq malakali o'qituvchilarga muhtojdirlar. 5% dan kamroqni tashkil qiluvchi og'ir nogiron o'quvchilar (masalan, umuman ko'zi ko'rmaydigan va eshitmaydigan) maxsus muloqot qilish malakalari va maxsus tayyorlov dasturlari texnikalarini o'zlashtirgan o'qituvchilarga muhtojdirlar.

Inklyuziv ta'limga urg'u berish bilan maxsus maktablar va markazlarni chiqarib tashlash degani emas. Ulardan yanada maxsuslashtirilgan va chuqurlashtirilgan yordamga muhtoj bolalarga yordam ko'rsatishdagi xizmatlarning asosiy qismi sifatida mavjud bo'lib qolishi talab etiladi. Talab qilinayotgan xizmatni belgilashda asosiy nuqtai nazar ayni bir bolaga qanday yordam eng to'g'ri yordam bo'lishi mumkinligiga qaratilgan bo'lishi kerak. Ko'pgina mamlakatlarda maxsus maktablar hali ham an'anaviy ta'lim berish o'chog'i bo'lib kelmoqda. Maxsus maktablar va markazlarning tajribalari har tomonlama yuqoridir. O'zimizning bilim va tajribalarimizni biz ular orqali shakllantirganmiz. Ular hukumat, jamiyat va ota-onalarga nogiron shaxslarga

ko'proq yordamlar berilsa ularni qanchalik imkoniyat va bilimlarga ega bo'lishliklarini ko'rsatib kelishgan. Hozir ham bunday majmualar ko'plab dasturlar uchun resurs markazlari, ichki trening, oilalarga va nogiron bolalarga yordam berish va oddiy maktablarda maxsus ta'limga muhtoj bolalarga ta'lim berish kabi xizmatlarni ko'rsatishda katta rol o'ynab kelmoqda.

"Mavjud maxsus maktablarga ajratilayotgan investitsiyalar ularning yangi maqsadlari, oddiy maktablarda maxsus ta'limga bo'lgan ehtiyojlarni qondirilishga qaratilgan vazifalariga sarflanishi kerak. Maxsus maktablar kam yoki umuman yo'q mamlakatlar inklyuziv maktablar ochish va maxsus xizmatlarni ko'rsatish borasidagi harakatlariga kerakli maslahatlarni olishlari mumkin, ayniqsa maxsus ehtiyojlar ta'limida o'qituvchilar tayyorlashni amalga oshirish va kerakli jamoani tuzish va ularga ko'plab bolalar va yoshlarga xizmat ko'rsatishda kerak bo'ladigan jihozlangan resurs markazlarini tashkil etish" (Maxsus Ehtiyojlar Ta'limi Faoliyati Doirasida, 1994).

Islohotlar. Inklyuziv ta'limda yangi fikrlarning talqin etilishi milliy islohot va maxsus yordamga muhtoj bolalar va yoshlar uchun strategiyalarda aniq aks etishi kerak.

Maxsus ta'limga muhtoj bolalar hozirgi maktab tizimida ehtiyojlari qondirilmayotgan bolalardir. Shu sababdan maktablar barcha bolalarning turli xildagi va umumiy maqsadlari, intilishlari, qiziqishlariga javob berishi kerak va ularning bilim olishlarini ta'minlashi kerak.

Maxsus ehtiyojlar ta'limi ta'lim tizimining bir qismidir. U jamiyat va mutaxassislar qimmatlari va munosabatlari, moliyaviy resurslarni taqsimlash va o'qitish, o'qituvchilar va maktab tabiati borasidagi savollar bilan o'zaro bog'liqdir.

Barchaga ta'limni rivojlantirish uchun umumiy ta'lim tizimiga tarkibiy o'zgartirishlar kiritish muhimdir. "Normal" va "maxsus" ta'lim o'rtasidagi to'siqlar olib tashlanishi kerak.

Maxsus ta'lim oddiy ta'limning bir qismi bo'lishiga qaramasdan, o'zining o'quvchilari, o'qituvchilari, boshqaruv jamoasi va ta'minot tizimidan tashkil

topgan ikkita ta'lim tizimi amalda qo'llanib kelinmoqda. Barcha o'quvchilarning talablariga javob beruvchi inklyuziv maktabda bunday tizimga ehtiyoj qolmaydi.

Islohotlar ta'lim maqsadlarining amaliyotini boshqarishi mumkin, lekin ular pedagogik amaliyotni to'g'ridan-to'g'ri boshqara olmaydi. Shu sababdan samarali bo'lishi uchun, islohotlar yaxshi muhokama qilinishi va ta'lim tizimi boshqaruvchilari va uni amalda qo'llovchilar tomonidan ko'rib chiqilishi kerak. "Hukumat miqiyosida qabul qilingan islohotlarning muhimligi ularni ta'lim masalalarini yetarli darajada hal qilishida emas, masalan qay tarzda o'qitish, balki ular sababli yuzaga kelayotgan munozaralarning tabiati va ta'lim apparatining boshqa bo'limlarida u yuritayotgan siyosatning muhimligidadir" (Fulsher,1991).

2.3. Internet tizimida inklyuziv ta'lim

O'zbekiston Respublikasida "Inklyuziv ta'lim: milliy modelini ishlab chiqish va joriy etish" dasturi 2007 yili boshlangan bo'lib, bugungi kunda unda 6000 ming nafar kishi ishtirok etmoqda. Dasturning maqsadi shundan iborat bo'lib, Navoiy, Termiz, Qarshi, Jizzax, Samarqand va Qo'qon shaharlarida ta'lim muassasalarida tizimida 12 ta aralash guruxlar tashkil etib, inkuluzif ta'limning modeli ishlab chiqarish va joriy etishdan iborat.

Loyihani amalga oshirish uchun 2007 yildan beri 1,5 mlrd. so'mga yaqin mablag' sariflangan. Loyiha doirasida imkoniyati cheklangan bolalar ishtirokida seminarlar, barcha viloyatlardan imkoniyati cheklangan bolalar ishtirokidagi Special Olympiks respublika o'yinlari, xalqaro forumlar o'tkazilib, shunday forumlarning birida Ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash fondida "Imkoniyati cheklangan bolalarni qo'llab-quvvatlanganligi uchun" maxsus sertifikatini taqdim etilgan edi ²³.

Loyiha doirasida metodik uslubiy qo'llanma sifatida "Inklyuziv ta'limning milliy modeli konsepsiyasi" ishlab chiqildi. Va u ta'lim muassasasigacha hamda boshlangich ta'lim tizimining sinov bazasiga kiritildi.

Loyihaning asosiy maqsadi imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishi uchun zarur shart sharoitlar yaratishdir. Loyiha amalga oshirilgan vaqtdan boshlab imkoniyati cheklangan bolalarning emotsional va ijtimoiy holati hamda bilim olish darajasi 20 foizga o'zgan. Shu tariqa inklyuziv ta'limning ixtisoslashgan ta'lim muassasalariga joriy etilishi natijasida sog'lig'ida imkoniyatlari cheklangan bolalarga umumiy munosabat o'zgarib, ularning har biri uchun u yoki bu sohada muvaffaqiyat qozonish imkoni vujudga keldi.

2011 yil 5 may kuni Toshkentda ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash fond, O'zbekiston Maxsus Olimpiyadasi, Fond Forum, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, YUNECKOning mamlakatimizdagi vakolatxonasi

²³ FUNDFORM.UZSTYLE.UZGOOGOOSHA.UZ

bilan hamkorlikda “Inklyuliziv ta’limning ijtimoiy strategiyalari” mavzusida xalqaro anjuman o’tkazildi. Ushbu anjuman jismoniy imkoniyati cheklangan bolalarning ta’lim olishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadini ko’zlagan Gulnora Karimovaning mualliflik loyihasi – “O’zbekistonda inklyuziv ta’lim” ning navbatdagi bosqichiga aylandi. Loyiha Ijtimoiy tashabbuslarni qo’llab-quvvatlash fondi tomonidan 2007 yildan beri amalga oshirilib kelayotgan bo’lib, bugungi kungacha mamlakatimiz bo’ylab 40000 dan ortiq bolani qamrab olgan. Hozirda yangi turdagi ta’lim muassasalarida imkoniyati cheklangan 600 dan ortiq bola tahsil olmoqda. 18 nafardan ortiq trener-maslahatchilar tayyorlanib, 125 nafar pedagog va tarbiyachilar uchun treninglar o’tkazildi. Mazkur tadbirlardan so’ng o’tkazilgan so’rov natijalari bolalarning hissiyot va ijtimoiy ahvoli 20 foizga o’sgani ko’rsatildi.

Xalqaro anjumanda davlat idoralari, xalqaro idoralar, ishbilarmon doiralar, nodavlat tashkilotlar vakillari, senatorlar, Oliy Majlis deputatlari ishtirok etishdi. Dastlab anjumanni o’tkazishni Yevropa, Yevrosiyo, Rossiya, Qozog’ston, Tojikiston Maxsus Olimpiadasi rahbarlari, AQSHning “Global Sports Partners” kompaniyasi, Rossiya, Ukraina, Malayziya, Eron, Pokiston, Buyuk Britaniya elchixonalari, BMT Taraqqiyot dasturi, DVV International tomonidan qo’llab-quvvatlangandi. Anjuman ishtirokchilari davlat idoralari, jamoat va xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlarni inklyuziv ta’lim muammolarni hal qilish va imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatga integratsiyalashishi yo’llarini izlashga safarbar qilish borasida o’zaro fikr almashishdi. Turli tashkilotlar bilan hamkorlikda inklyuziv ta’limni rivojlantirish yo’llari va metodlari, qo’shma srategiyalar ishlab chiqish bo’yicha takliflar kiritishdi. Yevropa, Yevrosiyo Maxsus Olimpiadasi dasturini rivojlantirish direktori Kshishtof Krukovski Ijtimoiy tashabbuslarini qo’llab quvvatlash fondiga “Imkoniyati cheklangan bolalarni qo’llab-quvvatlangani uchun” sertifikatini taqdim etdi. Eslatib o’tish joiz, shu yilning 23 mart kuni “Ayollar kengashi” Tashkiliy kengashi raisi Gulnora Karimovaga O’zbekiston Maxsus olimpiyadasini qo’llab-quvvatlash yo’lidagi sa’y-harakatlari uchun “E’tirof” setifkati topshirilgan edi.

Loyiha metodik uslubiy qo'llanma sifatida "Inklyuziv ta'limning milliy modeli konsepsiyasi" ishlab chiqildi. Va ta'lim muassasasigacha hamda boshlang'ich ta'lim tizimining sinov bazasiga kiritildi. Hozirda Termiz, Qarshi, Samarqand, Navoiy, Jizzax, Guliston, Toshkent, Qo'qon, Andijon, Xorazm va Nukus sharlaridagi yangi bog'cha, maktab, litsey, kasb-hunar kollejlari muvaffaqiyatli ish olib bormoqda. Loyihaning asosiy maqsadi – jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning o'z tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim olishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratib bershdan iborat. Xususan, butun mamlakatimiz bo'ylab o'tkazilgan Forum-Marafon ham inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan loyihalardan yana biriga aylandi. Mazkur marafonda imkoniyatlari cheklangan 600 kishi ishtirok etib, loyiha doirasida to'plagan mablag'larning bir qismi Jizzax shahridagi inklyuziv ta'limga ixtisoslashgan yangi maktabni qo'llab-quvvatlashga sarflandi. O'zbekiston Maxsus Olimpiadasi bilan hamkorlikda o'tkaziladigan an'anaviy aksiya ham aynan shu maqsadni ko'zlagan bo'lib, uning doirasida har yili bolalar o'rtasida sport bellashuvlari, Xalqaro Tinchlik kuniga bag'ishlangan futbol o'yinlari kabilar o'tkaziladi ²⁴.

Maxsus ta'lim yo'nalishi davlat talablari o'qituvchi oliy pedagogik ma'lumotga ega bo'lishi, quyidagilarni bilishi va ulardan foydalana olishi kerak:

- maxsus ta'lim muassasalari haqidagi Nizom va maxsus ta'limga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy, me'yoriy-uslubiy hujjatlarni bilishi;
- maxsus ta'limning maqsad va vazifalarini bilishi;
- maxsus ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablarni, ular asosida ishlab chiqilgan ta'lim-tarbiya dasturlarini mukammal bilishi, korreksiya pedagogikasining eng so'nggi yutuqlarini qo'llagan holda ular asosida tuzilgan o'quv dasturlarini bilishi, ularni hisobga olgan holda maxsus ta'lim muassasasida tegishli mashg'ulotlarning o'quv rejalarini tuzish va ularni talab darajasida amalga oshirish malakasiga ega bo'lishi;
- ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirish mohiyati va usullarini bilishi;

²⁴ FUNDFORM.UZSTYLE.UZGOOGOOSHA.UZ

- jismoniy va aqliy rivojlanishda muammosi bo'lgan bolalar ruxiy jarayonlarining shakllanish xususiyatlarini bilishi;

- maxsus ta'lim muassasasi o'quvchilarini tibbiy pedagogik-psixologik tashxis qilish metodikalari, ularni aniqlash va tabaqalashtirish usullari haqida ma'lumotga ega bo'lishi;

- maxsus ta'lim muassasasida maxsus korreksion yo'nalishga mos ravishda ta'lim-tarbiya jarayonini yangi zamonaviy talablar asosida tashkil qilish metodikasini egallashi va amaliyotda qo'llay olishi;

- pedagogik jarayondan kutilayotgan natijalarni oldindan faraz qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- ta'limiy maqsad mezonlarini belgilashni bilishi;

- turli yo'nalishlarda: dars ishlanmalari, ma'ruzalar, maqolalar, o'quvchilar bilimini nazorat qilish va boshqa mazmunda ijodiy loyihalar tuzishni bilishi;

- maxsus ta'lim muassasalari o'quvchilari bilan munosabatda mehr-muruvvatli, samimiy bo'lishi, insonparvarlik, ezigulik tamoyillariga amal qilishi;

- maxsus ta'lim muassasasidagi ta'lim-tarbiya jarayonida himoyalovchi pedagogikaning tartib va mezonlarini bilishi va ularga rioya qilishi;

- maxsus ta'lim jarayonida belgilangan sanitariya-gigiyena me'yorlarini bilishi;

- jismoniy va aqliy rivojlanishda muammosi bo'lgan bolalar bilan differensial va individual tarzda korreksion-pedagogik ishlar olib borishning yo'l va usullarini mukammal bilishi va amaliyotda qo'llay olishi;

- ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalar va yondashuvlarni qo'llay bilishi;

- maxsus ta'limda qo'llaniladigan o'qitishning zamonaviy didaktik-texnik vositalarini puxta bilishi va ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish malakasiga ega bo'lishi;

- maxsus ta'lim jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish usullarini bilishi (maxsus ta'lim uchun kompyuter dasturlari, xususan, talaffuzni shakllantirishni nazarda tutuvchi), ko'zi ojizlar uchun tuzilgan dasturlar;

- elektron darsliklar va boshqalar;
- eshitmaydiganlar qo'llaydigan muloqot vositalari nutq shakllarini (daktik, imo-ishora, og'zaki, yozma) mukammal bilishi (surdopedagogika yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglar uchun);
- ko'zi ojiz bolalar qo'llaydigan Brayl yozuvini mukammal bilishi (tiflopedagogika yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglar uchun);
- maxsus ta'lim sohasidagi muammolar, yangiliklar, izlanishlar, yangi o'quv-metodik adabiyotlardan xabardor bo'lishi, tahlil qilish va amaliyotda foydalanishni bilishi;
- maxsus ta'limdagi ilg'or ish tajribalarni o'rganish, tahlil qilish, egallash va qo'llash malakasiga ega bo'lishi;
- darsliklarning yangi avlodlaridan foydalanishda ularga qo'yiladigan talablar asosida tanqidiy yondoshish nizomlarini bilishi;
- ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va o'tkazish metodikasini egallagan bo'lishi;
- jismoniy va aqliy rivojlanishda muammosi bo'lgan bolalarni mustaqil hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik usullarini bilishi va amaliyotda bu usullardan foydalanish malakasini egallashi;
- ijtimoiy ko'nikmalar xususiyatlari va ularni o'quvchilarda shakllantirish usul va vositalaridan xabardor bo'lishi;
- maxsus maktab-internat bitiruvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini bilishi;
- jismoniy va aqliy rivojlanishda muammosi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi jarayonida ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini olib borish yo'l va vositalarini bilishi;
- ta'lim samaradorligini oshirish orqali o'quvchilarni integrasiyalashgan jarayonga yo'naltira bilishi, ya'ni umumta'limga tayyorlash malakasiga ega bo'lishi;
- o'quv predmetlarining mazmuni va ularni o'qitishdagi izchillik asoslari;
- o'quvchilarning umumiy va yosh psixologiyasi;

- o'qitishning interaktiv metodlari;
- o'quvchilarni milliy mustaqillik g'oyalari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash metodologiyasi;
- o'quvchilar o'rtasida kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish shakl va metodlari;
- o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan muomalada etika va estetika normalari;
- sinfdan tashqari (darsdan tashqari) ishlarni tashkil etish va o'tkazish metodikasi;

Kadrlarni qayta tayyorlash sifatini nazorat qilish quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- kadrlarni qayta tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladigan ichki nazorat;
- ichki nazorat tegishli ta'lim turini boshharish davlat vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan nizomlar asosida o'tkaziladi;
- fanlar bo'yicha attestasiyadan o'tkazish, qayta tayyorlash yo'nalishlari bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlashga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq qayta tayyorlash kurslarini tugatish ishlarini o'z ichiga oladigan yakuniy nazorat;
- ta'limni boshharish vakolatli organi va kadrlar buyurtmachilari tomonidan amalga oshiriladigan tashqi nazorat. Ushbu umumiy davlat talablarining davomi har bir qayta tayyorlash kursi o'quv-mavzu rejasidagi o'quv fanlari bo'yicha ishlab chiqilgan davlat talablari bilan tugallanadi.

Bugungi kunda maxsus ehtiyojli bolalar ta'limi sirasidagi eng dolzarb muammo – bu rivojlanishda nuqsonlari bo'lgan bolalarni ijtimoiy jamiyatga teng huquqlilik asosida erta va to'laqonli moslashtirish masalasidir. Ilk yosh davridan boshlab integrasiyalash ishlari ota-onalarning faol ishtirokida maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Integrasiyalashgan MTM ga maxsus ehtiyojli bolalarni qabul qilish "Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'lim muvaqqat Nizomi" (2005 yil 19 sentyabr) asosida tashkil etiladi.

Integrasiyalashgan MTMning maqsad va vazifalari ommaviy va inklyuziv maktabgacha ta'lim muassasalarining maqsad va vazifalaridan farqli o'laroq, imkoniyati cheklangan bolalarning imkoniyatlari, ularning individual-psixologik, nuqson xususiyatlari, turlari va uning darajalarini hisobga olgan holda quyidagicha belgilanadi:

- Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishning darajalari va holatlaridan qat'iy nazar barcha bolalarni ijtimoiy muhitga moslashtirish, bolalardagi mavjud nuqsonlarni korreksiyalash va har tomonlama rivojlantirish, maktab ta'limiga tayyorlash;
- Barcha MTM bolalarini emosional-axloqiy jihatdan rivojlantirish;
- Ota-onalarga nuqsonli bolalarni oilada ijtimoiy-psixologik yo'nalishda tarbiyalashga va ularni jamiyatga integrasiyalashga oid tavsiyalar berish;
- Rehabilitatsiya markazlari va integrasiyalashgan turdagi maktabgacha ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro aloqa o'rnatish;
- Rivojlanishda nuqsonlari bo'lgan bolalarni samarali integrasiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;
- Maxsus ehtiyojli bolalarni maktabgacha yosh davridan boshlab sog'lom rivojlanishdagi bolalar qatori har tomonlama tenglashtirish;
- Bog'chaning integrativ muhitiga rivojlanishda nuqsonlari bo'lgan bolalarni rehabilitatsiyalash (ijtimoiy muhitga moslashtirish, mavjud nuqsonlarini korreksiyalash va adaptatsiyalash) ishlarini amalga oshirish;
- Maxsus yordamga muhtoj bolalarning oilalariga ijtimoiy psixologik yordam ko'rsatish;
- Integrasiyalashgan turdagi MTM bilan rehabilitatsion markazlar o'rtasida aloqa o'rnatish va boshqalar.

Maxsus ehtiyojli bolalarni integratsiyalashgan MTM larda tashkil etilgan guruxlarga to'plashda bolalar soniga va yoshiga e'tibor beriladi. Bundan tashqari har bir guruxga bir xil turdagi nuqsonga ega bo'lgan bolalarni yig'ish pedagogik jarayonni osonroq kechishini va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Integratsiyalashgan MTMlarda 3,5 yoshdan 8 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun guruxlar tashkil etiladi. Bu MTMlarda bolalar va mutaxassislar uchun psixologik jihatdan qulaylik tashkil etilgan bo'lishi kerak. Integratsiyalashgan MTMlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, guruxlarda me'yorida rivojlanishdagi bolalar bilan maxsus ehtiyojli bolalar soni quyidagi nisbatda bo'lishi kerak:

- har bir guruxda me'yorida rivojlanishdagi bolalar 60% ni tashkil etishi;
- eshitishda, ko'rishda va aqliy rivojlanishda nuqsonlari bo'lgan bolalar esa 20% dan oshmasligi;
- har bir guruxdagi ruxiy rivojlanishi sustlashgan (RRS) va nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar ham 20% dan oshmasligi kerak.

Guruxlarda bolalarning umumiy soni 15 tadan oshmasligi maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda respublikamizda "inklyuziv ta'lim" tajriba sinov tariqasida amalga oshirilmoqda va yaxshi ko'rsatkichga erishilmoqda.

Har qanday jamiyatda kelajak vorislari bo'lmish farzandlarni ma'suliyatini his etadigan, ularni davlat taraqqiyoti va gullab yashnashiga salmoqli ulush qo'shadigan munosib fuqarolar bo'lib yetishishlariga katta umid bilan qaraladi. Dunyoga "O'zbek modeli" deb nom olgan rivojlanish yo'li bilan tobora ko'proq tanilayotgan O'zbekiston Respublikasida ham bolalar huquqlarini himoya qilishga juda katta e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizda maktab, litsey, gimnaziya, kollej kabi dargohlar bilan birgalikda turli yo'nalishdagi maxsus maktab-internatlar, mehribonlik uylari faoliyat ko'rsatayotganligi ham fikrimizning isbotidir. Ko'plab davlatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus tashkil etilgan maktablar bor. Ularning vazifasi bolalarni maxsus o'quv yurtlariga tayyorlash hamda ijtimoiy hayotga moslashuviga shart-sharoit yaratishdir. Bola huquqlarini Xalqaro Konvensiyasi hamma bolalarning ehtiyojini hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan ta'lim tizimini yaratish g'oyasini ilgari suradi. Chunki har bir bolada - u sog'lommi yoki nogironmi - takrorlanmaydigan xarakter, qiziqish, imkoniyat va bilimga ehtiyoj bor. *Hamma bolalarning ehtiyojlarini hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini hurmat*

qiladigan, ijtimoiy adolat hamda tenglikka erishishni maqsad qilib olgan ta'lim tizimi inklyuziv ta'lim deyiladi. Inklyuziv ta'lim nogiron bolalarni ta'lim jarayoniga integrasiya qilish hamda umumta'lim maktablarini nogiron bolalarga moslashtirishni ko'zda tutadigan ijtimoiy adolat va tenglikni bosh maqsad qilib olgan jarayondir. Inklyuziv ta'lim ijtimoiy modelga asoslanadi va u muammoni bolada emas, balki dastur va metodologiyada deb hisoblaydi. Bunday ta'lim tizimini hayotga tadbqiq etish bugungi ta'lim tizimiga ba'zi bir o'zgartirishlar kiritishni taqozo etadi. Bunda har bir bolaning ehtiyojini hisobga olgan holda o'quv rejalari tayyorlanadi, uslubiyotning psixologik muammolari bilan bog'liq tomonlari to'g'ri yo'lga qo'yiladi. Inklyuziv ta'lim hamma bolalarni, shu jumladan, IChB larni o'zlari xohlagan maktabda o'qishi mumkin, deb xulosa chiqaradi.

Maxsus ehtiyojli bolalar, boshqa bolalar, o'qituvchi va tarbiyachilari faoliyati inklyuziv ta'limda o'ziga xos o'rin tutadi. Bunday ta'lim tufayli IChB lar:

- jismoniy va ruhiy ehtiyojlarini qondiradilar;
- ijtimoiy xulq va o'z - o'ziga xizmat ko'rsatish malakalarini yaratadilar;
- o'zlarining imkoniyatlarini hisobga olgan o'quv materiallarini o'zlashtiradilar;
- tengqurlari bilan o'yinlarda ishtirok etib, muloqot o'rnatib rivojlanadilar;
- jismoniy tarbiya darslarida shaxmat - shashka o'yinlari, turli sport musobaqalarida vaqtni kuzatuvchi hakam yoki darvozabon bo'lishlari mumkin;
- do'stona muhitda do'st orttiradilar;
- sinf tadbirlarida ishtirok etadilar;
- tozalik va ozodalikni ta'minlaydilar;
- jamoa oldida ma'suliyat hissi rivojlantiriladi;
- didaktiv va o'yin vositalarini tayyorlashda birgalikda ishtirok etadilar;
- o'qituvchi va tarbiyachilar bolalarni bir - birlarini ichki dunyolarini tushunishga o'rgatadilar;
- har bir bolalarning qobiliyat va imkoniyatini hisobga oladilar;
- har bir bolalarda hayotiy va mustaqillikni shakllantiriladi;
- faoliyatlarni taqlil qilishni va baqolashni o'rganadilar.

Shuningdek, maktab ham, o'qituvchi va tarbiyachilari ham inklyuziv ta'lim tizimiga tayyor bo'lishi, maktab darajasi jismoniy sharoit va o'qishga imkon omillari shu ta'lim talablariga to'la javob berishi kerak. Maktab darajasida integrasiyani muvaffaqiyatli kiritishga bir nechta o'zaro omil o'quv dasturiga kiritish imkoniyatidir. Shuningdek, binolarning jismoniy joylashuvi, o'qish uchun imkoniyat va moliyalashgan imkon ham asosiy omillardandir.

Har bir ota - ona farzandining to'kisligini, kamolini ko'rish orzusida yashaydi. Nogiron farzandiga ta'lim olish imkonini izlab, bolasining tengqurlaridan ajralib uyida qolib ketayotganidan iztirobda yurgan ota-onalarga bolalari taqdirini o'ylab Xalq ta'limi vazirligi nogiron bolalarning ta'lim olishiga Yangi imkoniyat yaratuvchi "Imkoniyati cheklangan bolalar va o'simirlar inklyuziv ta'lim haqida" gi nizom loyihasini ishlab chiqdi. Nizomda ta'kidlashicha, endilikda ta'lim olishga layoqati bo'lgan lekin imkoniyati cheklangan har bir bolaga o'z tengqurlari qatorida ta'lim olishi uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. Bu borada Respublikamizda XTV ning xolqaro YuNICEF tashkiloti bilan hamkorlikda "Inklyuziv ta'lim orqali bolaga do'stona munosabat muhitini shakllantirish" loyihasi amalga oshirilmoqda. Jumladan, 11 ta tumanda jami 110 ta maktabda 210 nafar nogiron bola inklyuziv tarzda ta'lim olishi aniqlangan edi manitoring natijalarining tahlilidan so'ng quyidagi natijalar aniqlandi.

Inklyuziv sinflari mavjud maktablar soni 117 ta bo'lib inklyuziv sinflardagi nogiron o'quvchilar soni 378 nafarga yetgan. Nogiron farzandlarini boshqa tumanlarida joylashgan maxsus maktab-internatlarga olib borish muammosi tufayli uyda olib o'tirgan ota-onalar uchun ta'limning bunday imkoniyati ma'qul bo'lib, farzandalarini maktabga olib kelmoqdalar.

Seminardan o'tgan o'quvchilar o'z sinflarida do'stona muhitni yarata olganlar. Buning natijasida nogiron bolalar o'z imkoniyatlari darajasida sinflarga ta'lim olish, tengqurlari orasida, ularning ta'sirida rivojlanish, ijtimoiy tarbiyalashga muyassar bo'lmoqdalar.

Sinf jamoasida o'zaro g'amxo'rlik, bir-birlarini tushunish, hamkorlikda o'rganish, mehr-oqibat tuyg'ulari ustivorligi namoyon bo'lmoqda. Ta'lim

jarayonida zamonaviy munosabatlar shakllanmoqda, o'quvchlarni hamkorlikda o'rganish, guruxlarda ishlashga o'rgatish orqali ularda ijodiy tafakkur, tanqidiy fikrlash qobiliyatlari rivojlantiriloqda.

Ota-onalari bilan hamkorlik ishlari rivojlanishi natijasida sinfda intizom, birdamlik, muomala, munosabat madaniyatida ijodiy o'zgarishlar sezilmoqda (Xonqa, Urganch, Nukus tumanlari, Quva, Marg'ilon, Qo'qon shaharlari maktablari misolida). Ilgari nogiron bolalarni maktabga olib kelishdan cho'chib yurgan ota-onalar endi ularni do'stlariga ishonib maktabga yubormoqdalar. Chunki, inklyuziv sinf o'quvchilari imkoniyati cheklangan tengdoshlarining tuyg'ulari, ehtiyojlari imkoniyatlari bilan hisoblashish lozimligini tushunib yetmodalar.

Imkoniyati cheklangan, nogiron bolalarda o'z kuchiga ishonch, hayotga intilish paydo bo'lib, imkoniyatlari, iqtidorlari ochilmoqda. Inklyuziv ta'lim olib borayotgan o'qituvchilarga ham metodik yordam berib borish orqali ta'lim samaradorligi ta'minlanmoqda. Chunonchi, inklyuziv sinf o'qituvchilari va ota-onalar uchun nogiron va imkoniyati cheklangan bolalar, ular umumta'lim maktablari sharoitida o'qitishiga tabaqalashtirilgan yondashuv, bilimlariga qo'yilgan talablarni o'z ichiga olgan metodik qo'llanmalar yaratilgan: "Eshitishda muammosi bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limi", "Ko'rishda muammosi bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limi", "Aqliy faoliyatida muammosi bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limi", "Do'stona munosabat muhitida maktab" va h.k. Imkoniyatlari to'liq samara berish uchun mahalliy hokimiyat, ijtimoiy ta'minot bo'limlari, maktab rahbarlar quyidagi qo'shimcha chora-tadbirlarni ko'rishi talab qilinadi:

- barcha maktablarda qo'shimcha infrastrukturalar (panduslar, zinalarda maxsus tutqich perilalar) qurish;
- harakati cheklangan bolalarni aravachalar bilan ta'minlash;
- eshitishda muammosi bo'lgan bolalarni eshitish apparatlari bilan ta'minlash;

- ko'rishda muammmosi bo'lgan bolalarni maxsus ko'zoynaklar, ko'rmaydigan bolalarni maxsus yozuv taxtachalari va grifellar bilan ta'minlash talab etiladi.

Noylin Xeyzer, BMT Bosh kotibi o'rinbosari: Buyuk o'zbek mutaffakkiri Alisher Navoiy aytgan ediki, har qanday davlatning eng katta boyligi - bu uning xalqi, barcha insonlar bilim olishda teng huquqlarga ega bo'lishidir. Ta'lim - mamlakat rivojini ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkich, bu uning gullab-yashnashi garovi. Ta'lim yoshlarga o'z qobiliyatini ko'rsatish, mehnat qilish va davlatga foyda keltirish uchun keng yo'l ochib beradi. Bugungi kunning o'zidayoq O'zbekistonda katta muvaffaqiyatlar ko'zga tashlanmoqda, yuqori ko'rsatkichlarga erishilmoqda.

XULOSA

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng respublikamizda bozor munosabatlariga asoslangan erkin demokratik davlat qurishda davom etmoqdamiz. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot barpo etishda milliy qadriyatlarimizning o'rni nihoyatda katta. Jahon standartlariga hisobga olgan holda o'zbek mentalitetiga xos va mos turmush tarzi qaror topib bormoqda.

Ijtimoiy ish yo'nalishi O'zbekistonda jadal sur'atlarda olib borilmoqda va Respublikamizda samarali ishlar amalga oshirildi. Olib borilgan tadqiqotlarda yurtimizning kelajagi bo'lgan farzandlarimizni hech kimdan kam bo'lmay voyaga yetishlari uchun har bir oilada ota – onalar mas'uliyatni his etgan holda o'z farzandlari bilan madaniy muloqotda bo'lishlarini, to'g'ri tarbiya berishlari to'g'risida, inklyuziv ta'lim yaxshi samara berishida ilmiy fikrlar beriladi.

Inklyuziya umumiy ta'lim jarayoniga nafaqat o'ziga xos xususiyati mavjud bolalarni, balki ko'pchilikdan farqi bor bolalarni ham jalb qiladi. Bu boshqa tilda so'zlovchi, boshqa madaniyatga tegishli, turmush tarzi bilan farqlanadigan, turli qiziqishlarga ega va iste'dodlardir. Bunday bolalar uchun pedagoglar ma'lumotlarni berishda turli modifikatsiya va usullardan foydalanishlari zarur. Inklyuzivda e'tibor maxsus ta'limga emas, balki barcha bolalar uchun ta'limning samaradorligiga qaratiladi.

BMT ning nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasiga binoan ishtirokchi davlatlar quyidagilarni tan oladilar: “Nogironlik sog'lig'i yomonlashgan odamlar va atrofidagi to'siqlar o'rtasida vujudga keluvchi o'zaro aloqa natijasi bo'lib, ular boshqalar bilan keng holatda jamiyat hayotida to'liq va samarali ishtirok etishiga to'sqinlik qiladi”.

Nogironlikning turli ko'rinishlari mavjud: yengil va og'ir bosqichlari, vaqtinchalik va doimiy ko'rinishlari, ammo nogironlikka chalingan insonlar ularni qo'llab quvvatlovchi jamiyatda yashasalar, ta'lim olish va mehnat qilish imkoniyatlaridan cheklanmasalar ijobiy natijalar ko'rsatadilar.

Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra dunyoda 750 million nogiron mavjud. Bu sayyoramizda yashovchi aholining 1G'10 qismidir (ulardan 200 millionga yaqini imkoniyati cheklangan bolalardir).

Nogironlik tug'ma yoki orttirilgan bo'lishi mumkin. Nogiron tug'ilishi sabablari haligacha to'liq o'rganib chiqilmagan. Xavfli omillar qatorida olimlar genetika, ekologiya, nosog'lom yashash tarzi, infeksiyalar va ota-onaning boshdan kechirgan kasalliklarini aytib o'tishadi. Hozirgi tibbiyot tashxisi rivojlanishini hisobga olsak, go'yoki bunday holatlar qaytarilmasligi kerak, ammo ushbu muammo hanuzgacha dolzarbligicha qolmoqda.

Masala o'quvchilar o'rtasida farq mavjudligida emas, albatta farq mavjud. Hattoki juda katta farq mavjud. Mana shu farq tufayli ba'zi o'quvchilar ta'lim jarayoning moslashishga muhtojdirlar. Shunday bo'lsada bunday segregatsiya qilish va ikki yoqlama ta'lim tizimini qilish kerak degan xulosa chiqarmaslik kerak. Juda ehtiyotkorlik bilan tuzilgan dastur orqali birgini umumiy ta'lim tizimi doirasida barcha bolalarning talablarini qondirishga harakat qilinishi kerak.

Shuning uchun ushbu magistrlik dissertatsiyasini yozishda quyidagi xulosalarga kelindi:

- maxsus ta'limga muhtoj bolalar uchun inklyuziv ta'lim modellarini ishlab chiqish va tanishtirish;
- inklyuziv ta'lim orqali nogiron bolalar xayotini normallashtirish;
- nogiron bolalarga achinish emas, ularga imkoniyatlar berish;
- inklyuziv ta'lim orqali ularni kelgusidagi hayotlarini, mustaqil olib borishga va ularga nisbatan hurmatli munosabatini qaror topshirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T.: O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. – T.: O'zbekiston, 1993.
3. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: O'zbekiston, 1995.
4. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.: O'zbekiston, 1996. – 1 jild.
5. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. – T.: O'zbekiston, 1996. – 2 jild.
6. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – T.: O'zbekiston, 1996. – 3 jild.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997.
8. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1998. – 6 jild.
9. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: O'zbekiston, 1998.
10. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. – T.: O'zbekiston, 2002. – 10 jild.
11. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. – T.: O'zbekiston, 2002.
12. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. – T.: O'zbekiston, 2003. – 11 jild.
13. Karimov I.A. Erishilgan marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yo'lidan izchil borish – asosiy vazifamiz. – T.: O'zbekiston, 2004.

14. Karimov I. A. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarimizning pirovard maqsadidir. – T.: O'zbekiston, 2007.
15. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
16. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009.
17. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir.// Xalq so'zi. – 2005. – 29 yanvar.
18. Karimov I.A. Yangi hayotni eskicha qarash va yondashuvlar bilan qurib bo'lmaydi.// Xalq so'zi. – 2005. – 17 fevral.
19. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qo'shma yig'ilishida so'zlagan nutqi. - T., 2010, noyabr.
20. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2003.
21. O'zbekiston Respublikasining “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida” gi Qonuni. 11.04.2007 yil № O'RQ – 88.
22. O'zbekiston Respublikasining “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining yuridik xizmati to'g'risida” gi Nizom. – Toshkent, 24 avgust 2007 yil.
23. O'zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida” gi Qonuni. - T., “O'zbekiston”, 2000.
24. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida” gi Qonuni. 1997 yil 29 avgust.
25. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. 1997 yil 29 avgust.

26. Bu muqaddas vatanda azizdir inson. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.
27. Barkamol avlod orzusi. – T.: Sharq, 1999.
28. Jabborov I.M. Jahon xalqlari etnologiyasi asoslari. – T., 2005.
29. Tursunov S.N. va boshqalar. Etnografiyadan o'quv-metodik qo'llanma. - T., 1999.
30. Its R.F. Vvedenie v etnografiyu. – L., 1974.
31. Osnovo etnografii pod redaktsiey S.A.Tokareva. – M., 1986.
32. Jabborov I., Jabborov S. Jahon dinlari tarixi. – T., 2001.
33. Jabborov I.M. Etnografiya asoslari. – T.,1981.
34. Nogironlar uchun xalqaro dastur BMT rivojlantirish dasturi. Toshkent, 2003.
35. Chicherina Y.E., Bondareva Y.V., Nurkeldiyeva D.A. Xrestomatiya dlya provedeniya treninga "Osnovi sotsialnoy raboti s detmi invalidami i ix semyami". Tashkent, 2010.
36. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent, 2008.
37. Sobirova D. G'. "Bolalarni joylashtirishning muqobil shakllari" tarqatma materiallaridan. Toshkent, 2010.
38. Ganiyeva M.X., Karamyan M.X. Xrestomayatiya po uchebnomu kursu "Osnovi sotsialnoy raboti". Tashkent, 2010.
39. Kim Lyudmila. Xrestomatiya dlya provedeniya kursa "Alternativnie formi obustroystva detey". Tashkent, 2010.
40. O'zbekistonda ijtimoiy ishni rivojlantirish mavzusidagi trening materiallari. Toshkent, 2006-2008.
41. "Oila va bolalar bilan ishlash". MinVUZ-RSSAD-TDMADI-YUNISEF. Toshkent, 2009.

Internet – resurslar

www.bilim.uz

www.gov.uz

www.ziyo.edu.uz

www.ziyonet.uz

www.performance.edu.uz

www.tseu.fan.uz

www.zakon.edu.ru

www.wikipedia.org

www.td-ncbgd.ru

www.autism.ru

www.maminsite.ru

www.wildlifeweb.org.uk

www.summercamp.ru

www.wap.downsyndcame.borda.ru

**"BOLA HUQUQLARINING KAFOLATLARI TO'G'RISIDA" GI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNI**

II bob. Bola huquqlarining asosiy kafolatlari.

23-modda. Bolaning bilim olish huquqi kafolatlari.

Har bir bola bilim olish huquqiga ega. Davlat bolaning bepul majburiy umumiy o'rta ta'lim, shuningdek o'rta maxsus kasb-hunar olishini kafolatlaydi.

III bob. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlarining qo'shimcha kafolatlari.

24-modda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning oila muhitiga bo'lgan huquqi kafolatlari.

Davlat bolaning oilada bo'lishiga to'sqinlik qiluvchi sharoitlarni bartaraf qilish, bola oilasidan ajratilgan hollarda esa uni oilasiga tezroq qaytarish bo'yicha zarur choralarni ko'radi.

Davlat nogiron bolalarni hamda jismoniy va (yoki) ruxiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga moddiy yordam, maslahat yordami va boshqa yordam ko'rsatadi hamda ularni qo'llab-quvvatlaydi.

Ota-ona qaramog'idan maxrum bo'lgan bola to'g'risida g'amxo'rlik qilishda imtiyozli huquq bu vazifani bajarishga qodir bo'lgan qarindoshlariga beriladi.

Bolani oilaga joylashtirishning imkoniyati bo'lmagan taqdirda, uni ixtisoslashtirilgan muassasalarga joylashtirish oxirgi choradir.

Oilada tarbiyalanishi mumkin bo'lmagan ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar ularga zarur g'amxo'rlikni hamda qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydigan muqobil shaklda joylashtirilish huquqiga ega.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni muqobil joylashtirishning shakllari quyidagilardir:

- vasiylik va xomiylikni belgilash;
- bolani farzandlikka olish;
- oilaga tarbiyaga olish (patronat);
- ixtisoslashtirilgan tarbiya, davolash muassasalariga, ijtimoiy ximoya muassasalariga joylashtirish.

Qonun hujjatlariga muvofiq ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni muqobil joylashtirishning boshqa shakllari ham nazarda tutilishi mumkin.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni muqobil joylashtirish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

25-modda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning jamiyatga uyg'unlashish kafolatlari.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar jamiyat hayotida ishtirok etishda boshqa bolalar bilan teng huquqlarga egadir.

Davlat ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar va ular oilalarining jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlash uchun ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitmaslik shartlari asosida dasturlar ishlab chiqish tashabbuskori bo'ladi hamda zarur resurslar ajratadi.

Ta'lim, tibbiyot va madaniy-ma'rifiy muassasalar nogiron bolalar hamda jismoniy va (yoki) ruxiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarning erkin harakatlanishlari uchun moslashtirilgan bo'lishi kerak.

Davlat ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni reabilitatsiya qilish tizimini shakllantirish va rivojlantirishni tashkil etadi hamda bunga ko'maklashadi.

Nogironlik belgilangan paytdan boshlab bola tegishli davlat organlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan yakka tartibdagi reabilitatsiya dasturidan foydalanish huquqiga ega.

29-modda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning ta'lim olish kafolatlari.

Davlat maxsus pedagogik yondashuvga ehtiyoji bo'lgan ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning belgilangan ta'lim standartlari va talablari darajasida bilim olishlarini kafolatlovchi zarur mablag'lar ajratadi hamda boshqa choralar ko'radi.

Jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar va nogiron bolalar ular uchun maxsus ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim muassasalarida o'qish va tarbiyalanish hamda o'z jismoniy, aqliy qobiliyatlari va xohishlariga mos bo'lgan ta'lim olish.

Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning tavsiyasi bo'lgan taqdirda, jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar va nogiron bolalarning ota-onalari o'z xohish-istagiga ko'ra hamda bolaning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta'lim (umumta'lim yoki ixtisoslashtirilgan) muassasasi turini tanlash huquqiga ega.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga o'rta maxsus, kasb-xunar va oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishda qonun hujjatlari bilan imtiyozlar belgilanishi mumkin.